ISSN 218-8088

XALQ TA'LIMI AXBOROTNOMASI

"XALQ TA'LIMI AXBOROTNOMASI" JURNALI

Muassis:
"Xalq ta'limi" jurnali tahririyati DUK

PUBLIC EDUCATION BULLETIN

"PUBLIC EDUCATION BULLETIN" JOURNAL

2024

1-son
(Yanvar-Fevral)

Jurnal 2015-yildan chiqa boshlagan

(O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2014-yil 17-maydagi
137-sonli buyrug'i bilan tashkil etilgan)

TOSHKENT

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “Maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarining attestatsiyasini tashkil etish to‘g‘risida”gi **2024-yil 4-yanvar, 7-son buyrug‘i** 4

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “Umumta’lim muassasalarida uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi **2024-yil 5-yanvar, 8-son buyrug‘i**..... 20

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2023-yil 29-dekabrdagi PQ-422-son qarori ijrosi haqida”gi **2024-yil 5-yanvar, 9-son buyrug‘i** 47

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik sohasidagi majburiy talablarni qisqartirish hamda litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 9-yanvardagi PF-8-son Farmoni ijrosi haqida”gi **2024-yil 15-yanvar, 18-son buyrug‘i** 66

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023-yil 28-apreldagi 111-sonli buyrug‘iga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi **2024-yil 22-yanvar, 19-son buyrug‘i** 68

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining ayrim buyruqlariga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida”gi **2024-yil 22-yanvar, 21-son buyrug‘i** 69

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining ‘‘Maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlariga malaka toifalari berish to‘g‘risida’’gi **2024-yil 5-fevral, 28-son buyrug‘i**.....71

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining ‘‘2024-2025-o‘quv yili uchun 8-9-sinf Jaxon tarixi, 9-sinf O‘zbekiston tarixi hamda 8-sinf Davlat va huquq asoslari fanidan darslik maketlarini yangidan yaratish ishlarini tashkillashtirish to‘g‘risida’’gi **2024-yil 6-fevral, 30-son buyrug‘i** 73

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining ‘‘O‘qituvchilarning ilg‘or tajribasi va faoliyati davomida qo‘llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida’’gi **2024-yil 7-fevral, 32-son buyrug‘i**.....80

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining ‘‘Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligida mavjud axborot tizimlarini ekspertizadan o‘tkazish to‘g‘risida’’gi **2024-yil 9-fevral, 36-son buyrug‘i**.....96

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining ‘‘Respublika qiz bolalar o‘quv-tarbiya muassasasi xodimlarini attestatsiyadan o‘tkazish to‘g‘risida’’gi **2024-yil 12-fevral, 37-son buyrug‘i**.....98

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarining attestatsiyasini tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 17-sentabrdagi 572-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida” 2023-yil 29-dekabrdagi 692-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrdagi 692-son qarori (keyingi o‘rinlarda - qaror) bilan Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 572-son qaroriga quyidagilarni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin:

malaka toifasini olish bo‘yicha sinovlar bir yilda kamida bir marotaba ikki bosqichda o‘tkazilishi hamda birinchi bosqichda talabgorning mutaxassislik fani va kasb standarti bo‘yicha bilim darajasi, ikkinchi bosqichda - pedagogik mahorati baholanishi;

maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan, o‘rta maxsus va professional ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazishni O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan amalga oshirilishi;

maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarining mutaxassislik fani va kasb standarti bo‘yicha bilim darajasi hamda pedagogik mahoratini, o‘rta maxsus va professional ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarining pedagogik mahoratini va psixologik tayyorgarligini baholash hamda o‘quv fani

bo‘yicha malakalarini sinovdan o‘tkazish.

2. Quyidagilar:

2024-yil yanvar-iyun oylarida o‘tkaziladigan maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlari attestatsiyasini tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi **1-ilovaga** muvofiq;

maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini malaka (test) sinovlarini (keyingi o‘rinlarda - malaka sinovlari) o‘tkazish tartibi to‘g‘risida yo‘riqnoma **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Ta’lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti (S.Radjabov) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari bilan birgalikda:

2024-yil yanvar-iyun oylarida bo‘lib o‘tadigan attestatsiyadan o‘tish uchun pedagog kadrlar tomonidan davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoxud Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi rasmiy veb-sayti orqali murojaatlarni qabul qilishni nazoratga olsin;

2024-yil 15-yanvarga qadar pedagog kadrlarni malaka (test) sinovlarida qatnashish bo‘yicha maxsus platforma orqali murojaatlarni ko‘rib chiqishga mas’ul xodimlar ro‘yxatini shakllantirsin;

murojaatlarni noto‘g‘ri qabul qilgan mas’ullarga intizomiy jazo choralari qo‘llash bo‘yicha takliflar kiritsin;

malaka sinovlarini o‘tkazish joyi, auditoriya (sinf)lar sonini tayyorlasin hamda nazoratchi va auditoriya rahbarlari ro‘yxatini shakllantirsin;

nazoratchi va auditoriya rahbarlari uchun o‘quv seminarlar tashkil etsin;

pedagog kadrlar soniga mos holda auditoriya (sinf)lar soni asosida malaka sinovini o‘tkazish shakli hamda jadvalini vazirlikning rasmiy veb-saytida e’lon qilsin.

4. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi (D.Davidova):

2024-yil 1-fevralga qadar pedagog kadrlarning murojaatlariga ko‘ra malaka sinovlarini (test sinovlari, ijodiy, nazariy (og‘zaki, yozma), nazariy (og‘zaki, yozma) va amaliy) materiallarini ko‘p variantlilik asosida maxfiyligini ta’minlagan holda nazorat savollari bankini shakllantirsin. Bunda, savollar sifati va ularning har bir smena uchun

takrorlanmasligiga alohida e'tibor qaratsin.

2024-yil 20-fevralga qadar Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (R.Musurmonov), Ta'lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti (S.Radjabov) bilan birgalikda pedagog kadrlar uchun malaka sinovi jarayonini (onlayn masofadan turib real vaqt rejimida) sinovdan o'tkazsin.

5. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi(R.Musurmonov):

manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda "Elektron hukumat" tizimining idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali shaxsga doir ma'lumotlar bo'yicha axborot tizimining "pedkadr.uzedu.uz" platformasi bilan integratsiya qilinishini ta'minlasin;

2024-yil 15-fevralga qadar malaka sinovlarini kompyuterda real vaqt rejimida onlayn o'tkazilishini inobatga olib sinovlar o'tkaziladigan auditoriya va binolarni internet tarmog'i bilan ta'minlash, kompyuter qurilmalari, video kuzatuv tizimlarini ishga tushirilishini ta'minlasin;

Onlayn malaka sinovlari platformasi "test.uzedu.uz"ni o'rnatilgan tartibda malaka sinovlarini o'tkazishga tayyor holatga keltirish choralarini ko'rsin.

6. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi ta'lim muassasalari rahbarlari:

attestatsiyadan o'tganiga besh yil to'lgan va besh yil davomida amaldagi malaka toifasini himoya qilmagan yoki malaka toifasini oshirmagan pedagog kadrlarni navbatdagi attestatsiyaga o'z vaqtida jalb etish choralarini ko'rsin;

pedagog kadrlarni navbatdagi majburiy attestatsiyadan o'tish lozimligi to'g'risida yozma ravishda xabardor qilish hamda attestatsiyadan o'tkazish tartibi bilan tanishtirsin;

pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish va ularga malaka toifasi berish bo'yicha maxsus platforma orqali kelib tushgan murojaatlarni 5-10 kun muddat ichida o'rganib chiqsin;

2024-yil 15-yanvarga qadar malaka (test) sinovlari ishtirokchilari sonidan kelib chiqqan holda test sinovlarini o'tkazishda har tomonlama qulay sharoitlarga ega bo'lgan binolaridan foydalanish uchun

mahalliy hokimliklar bilan kelishilgan takliflarni Ta'lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamentiga kiritsin.

7. Pedagoglar tomonidan yuborilgan murojaatlardagi ma'lumotlar to‘g‘ri qabul qilinganligiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlari shaxsan mas'ul etib belgilansin.

8. Ta'lim tashkilotlari mulkidan samarali foydalanish bo‘limi (D.G‘aniyev) Ta'lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti

(S.Radjabov) bilan birgalikda **2024-yil 20-yanvarga** qadar malaka sinovlari o‘tkazish maqsadida hududiy boshqarmalar tomonidan tavsiya etilgan binolarni o‘rganib chiqsin hamda yakuniy ro‘yxatini shakllantirsin.

9. Axborot xizmati (D.Sobirova)ga:

attestatsiyadan o‘tish uchun pedagog kadrlar tomonidan davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoxud vazirlik rasmiy veb-saytidagi “pedkadr.uzedu.uz” platformasi orqali murojaatlarni yuborish bo‘yicha tegishli bo‘limlar bilan hamkorlikda videorolik tayyorlasin;

pedagog kadrlar attestatsiyasining tashkil etilishi bilan bog‘liq jarayonlarni ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan, elektron ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

10. Ta'lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti (S.Radjabov) Yuridik boshqarma (X.Asrorov) bilan birgalikda idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda qarorga muvofiqlashtirish choralarini ko‘rsin.

11. Devonxona mudiri (D.Isxakova) o‘rnatilgan tartibda ushbu buyruqni tegishli tarkibiy bo‘linmalarga, Maktabgacha ta'lim agentligi, Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlarga yetkazsin.

12. Mazkur buyruqning ijrosi nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir **X.Umarova**

Toshkent sh.,
2024-yil 4-yanvar,
7-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2024-yil 4-yanvardagi
7-son buyrug‘iga
1-ILOVA

2024-yil yanvar-iyun oylarida o‘tkaziladigan maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlari attestatsiyasini tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlar

DASTURI

T/r	Tadbirlarning nomlanishi	Amalga oshirish shakli	Amalga oshirish muddatlari	Mas’ul ijrochilar
1	2024-yilda attestatsiyadan o‘tish uchun pedagog kadrlarning murojaatlarini qabul qilishni tashkil etish.	1. Yanvar-iyun oylarida o‘tkaziladigan pedagog kadrlar attestatsiyasi ishtirokchilaridan murojaatlarni qabul qilish bo‘yicha mas’ul xodimlar uchun o‘quv seminar o‘tkazish. 2. Yanvar-iyun oylarida attestatsiyadan o‘tish uchun pedagog kadrlarni Davlat xizmatlari markazlari, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali va “pedkadr.uzedu.uz” tizimi orqali yuborilgan murojaatlarini belgilangan muddatlarda o‘rganib chiqib, munosabat bildirish. 3. Kunlik kelib tushgan murojaatlarni tahlil qilish va vazirlik rahbariyatiga hisobot berish.	2024-yil yanvar 2024-yil yanvar-fevral 2024-yil yanvar-fevral	Ta’lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti (S.Radjabov) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshliqlari

2	Pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish va ularga malaka toifasi berish bo'yicha har bir murojaatlarni nizom talablari asosida o'rganish.	1. Pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish va ularga malaka toifasi berish bo'yicha hujjatlarni qabul qilish mobaynida pedagog kadrlarning navbatdagi yoki navbatdan tashqari attestatsiyaga to'g'ri jalb etilayotganligini tekshirish. 2. Murojaatlarni qabul qilish jarayonida pedagog kadrlarni amaldagi malaka toifasini to'g'riligini aniqlash.	2024-yil yanvar-fevral	Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshliqlari
		3. C1 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikatga yoxud tegishli darajadagi tilni o'qitishning kasbiy mahoratlarni aniqlovchi sertifikatlarini haqqoniyligini o'rganib chiqish va tahlil qilish. 4. Pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish va ularga malaka toifasi berish bo'yicha har bir hujjatlarni 5-10 kun muddat ichida o'rganib chiqish.		
3	Pedagog kadrlar soniga mos holda auditoriya (sinf)lar soni asosida malaka test sinovini o'tkazish grafigini ishlab chiqish.	1. Attestatsiyadan o'tish uchun ishtirok etuvchi pedagog kadrlar sonini aniqlash. 2. Pedagoglar sonidan kelib chiqib, ularga mos holda auditoriya (sinf)lar sonini belgilash. 3. Malaka test sinovini o'tkazish grafigini ishlab chiqish.	2024-yil 10-martga qadar	Ta'lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti (S.Radjabov)

4	Malaka (test) sinovlari ishtirokchilari sonidan kelib chiqqan holda test sinovlarini o‘tkazishda har tomonlama qulaylik va sharoitlar yaratish bo‘yicha tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishish.	1. Malaka (test) sinovlarini o‘tkazish uchun tegishli binolaridan foydalanish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish. 2. Mahalliy hokimliklar va tegishli boshqaruv organlari bilan kelishgan holda malaka (test) sinovlarini o‘tkazish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishni yo‘lga qo‘yish. 3. Muntazam ravishda internet va axborot kommunikatsiya vositalari ishlashini inobatga olgan holda barcha qulayliklar yaratilgan binolarda o‘tkazilishini inobatga olish.	2024-yil mart-may	Ta’lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti (S.Radjabov) Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (R.Musurmonov)
5	Malaka (test) sinovlarini o‘tkazish joyi, auditoriya (sinf)lar sonini tayyorlash hamda nazoratchi va auditoriya rahbarlari ro‘yxatini tuzish.	1. Malaka (test) sinovlarini o‘tkazish joyi hamda auditoriya (sinf)larni tayyorlash. 2. Nazoratchi va auditoriya rahbarlari ro‘yxatini shakllantirish. 3. Nazoratchi va auditoriya rahbarlari uchun o‘quv-seminar tashkil qilish.	2024-yil yanvar-fevral	Ta’lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti (S.Radjabov) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari

6	Toshkent shahar va Toshkent viloyatidan attestatsiyadan o'tish uchun ishtirok etuvchi pedagog kadrlar test sinovlarini vazirlikning Shayxontohur tumanidagi binosida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari tomonidan berilgan binolarida o'tkazishni tashkil etish.	Malaka (test) sinovlarini o'tkazish jadvalini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun vazirlik rahbariyatiga kiritish. Malaka (test) sinovlarini o'tkazish jadvali kuzatuv xati orqali tasarrufida ta'lim muassasalari mavjud bo'lgan vazirlik va idoralarga yuborish. Malaka (test) sinovlari topshiradigan pedagoglarning ro'yxatlarini guruhlarga bo'lib chiqqan holda shakllantirish va malaka sinov o'tkaziladigan binoning kirish qismiga ilib qo'yish. Malaka (test) sinovlari o'tkaziladigan xonalarni texnik jihatdan tayyorgarligi, kompyuterlarning holati, internet tarmog'iga ulanganligi va dasturiy ta'minoti o'rganib chiqib tayyorlab qo'yish. Malaka (test) sinovlarini o'tkaziladigan xonalarning sanitariya qoidalari, me'yorlari va gigiyenik talablarga mos holda tayyorlab qo'yish. Malaka (test) sinovlari o'tkaziladigan xonalarni sinovlar boshlanishidan avval, qolaversa, navbat (smena)lar oralig'ida maxsus vositalar bilan dezinfeksiya ishlarni amalga oshirish. Malaka (test) sinovlarida ishtirok etishi kerak bo'lgan pedagoglarni jadval asosida, shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari bilan ishtirokini ta'minlash. Malaka (test) sinovlari o'tkaziladigan kunlari: Malaka (test) sinovlari o'tkaziladigan xonalardagi kompyuterlar va internetlarni muntazam ishlashlarini ta'minlash; Pedagog kadrlar ro'yxatlari shaklantirish hamda malaka (test) sinovlari bo'lib o'tadigan xonalarga ishtirokchilari olib kirish; Malaka (test) sinovlari bo'yicha ishtirokchilar tomonidan tushgan murojaatlarni qabul qilish;	2024-yil 10-martga qadar	Ta'lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti (S.Radjabov) Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (RMusurmonov) Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, viloyatlar va Toshkent shahri maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlariga

		Pedagog kadrlar attestatsiyasi jarayonlari to‘g‘risidagi yangiliklarni ijtimoiy tarmoqlar hamda vazirlikning rasmiy veb-saytida yoritib borish.		Axborot xizmati (D.Sobirova)
7	Navbatdan tashqari attestatsiyadan o‘tuvchi pedagog kadrlardan bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida yig‘imlar undirilishini hamda elektron to‘lov tizimlari orqali amalga oshirilishini yo‘lga qo‘yish.	1. Navbatdan tashqari attestatsiyadan o‘tuvchi pedagog kadrlardan bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida yig‘imlar undirilishini tashkil qilish. 2. Murojaatlarni qabul qilish jarayonlarida SMS xizmatining muntazam ishlab turishini ta’minlash. 3. Murojaatlar yuborish jarayonida pedagoglar tomonidan amalga oshirilayotgan to‘lovlarni jamoatchilik o‘rtasida keng tarqalgan va qulay bo‘lgan elektron to‘lov tizimi orqali amalga oshirishni yo‘lga qo‘yish.	2024-yil yanvar-iyun	Ta’lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti (S.Radjabov) Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (R. Musurmonov)
8	Attestatsiyadan o‘tish uchun pedagog kadrlarning malaka sinovlarini (test sinovlari, ijodiy, nazariy (og‘zaki, yozma), nazariy (og‘zaki, yozma) va amaliy) nazorat banki savollarini shakllantirish.	1. Tegishli o‘quv fani bo‘yicha malaka (test) sinovlari va ijodiy, nazariy (og‘zaki, yozma), nazariy (og‘zaki, yozma) va amaliy) nazorat bank savollarini tuzish uchun malakali ekspertlar guruhlarini shakllantirish. 2. Fanlar va tillar kesimida foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxatini tasdiqlash va vazirlikning rasmiy sahifalarida hamda “pedkadr.uzedu.uz” platformasida e’lon qilish. 3. Fanlar va tillar kesimida topshiriqlar varianti mazmuni (spetsifikatsiyasi) va baholash mezonlarini, vaqt me’yorlarini fan ekspertlari ishtirokida ishlab chiqish, tasdiqlash va vazirlikning rasmiy sahifalarida hamda “pedkadr.uzedu.uz” platformasida e’lon qilish. 4. O‘quv fani bo‘yicha malaka sinovlarini (test sinovlari, ijodiy, nazariy (og‘zaki, yozma),	2024-yil yanvar 2024-yil yanvar-fevral	Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi (D.Davidova) Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (R. Musurmonov)

		nazariy (og'zaki, yozma) va amaliy) nazorat banki savollarini tuzish. 5. Malaka sinovlari uchun tayyorlangan nazorat materiallari bankini ekspertizadan o'tkazish. 6. O'quv fani bo'yicha malaka (test) sinovlari mazmunini malaka toifalariga mos ravishda tabaqalashtirish va savollar mazmuniga PISA, TIMSS, PIRLS, TALIS kabi xalqaro tadqiqotlar savollari namunalaridan kiritish. 7. Malaka sinovlari o'tkaziladigan barcha fanlardan tillar kesimida namunaviy topshiriqlar variantlarini ishlab chiqish va malaka (test) sinovlarini o'tkazish tizimiga yuklash. 8. Malaka sinovlari sifatli, shaffof o'tkazish maqsadida nazorat (test) materiallarini sifatli tayyorlash, maxfiyligini ta'minlash, topshiriqlar takrorlanishini oldini olgan holda yetarli miqdorda tayyorlanishini ta'minlash.		
9	"pedkadr.uzedu.uz" platformasini shaxsga doir ma'lumotlar bo'yicha axborot tizimi bilan sifatli va uzluksiz ishlashini ta'minlash.	1. Axborot tizimi "pedkadr.uzedu.uz" platformasi sifatli va uzluksiz ishlashi ta'minlash.	yil davomida		Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (R. Musurmonov)

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2023-yil 4-yanvardagi
7-son buyrug‘iga
2-ILOVA

Maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini malaka (test) sinovlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida
YO‘RIQNOMA

Mazkur Yo‘riqnoma “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini **malaka (test) sinovlarini** o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 572-son qaroriga asosan maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarining (keyingi o‘rinlarda - pedagog kadrlar) attestatsiya jarayoniga mutaxassislik fani va kasb standarti bo‘yicha bilim darajasini aniqlash hamda pedagogik mahoratini baholash bo‘yicha malaka (test) sinovlari (keyingi o‘rinlarda - malaka sinovlari)ni o‘tkazish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Yo‘riqnoma talablari malaka toifalariga talabgor pedagog kadrlarning malaka (test) sinovini o‘tkazish jarayoniga nisbatan tatbiq etiladi.

2. Attestatsiyaga jalb etilgan pedagog kadrlarning malaka sinovi mart-may oylarida Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (keyingi o‘rinlarda - Vazirlik) tomonidan tasdiqlangan jadval asosida o‘tkaziladi.

3. Mazkur Yo‘riqnomada quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

talabgor — oliy malaka, birinchi, ikkinchi malaka toifali va mutaxassis lavozimidagi hamda mazkur malaka toifalari va lavozimlarga talabgor pedagog kadrlar;

auditoriya nazoratchisi — Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining buyrug‘i bilan tayinlanadigan o‘quv fani bo‘yicha malaka sinovi o‘tishini qat’iy nazorat qilishga mas’ul bo‘lgan va talabgorlarga mala-

ka sinovini topshirish tartibi bo‘yicha amaliy yordam ko‘rsatish uchun jalb qilingan mutaxassislar;

auditoriya rahbari — Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining buyrug‘i bilan tayinlanadigan, guruh nazoratchilari va talabgorlar harakatlariga umumiy rahbarlikni bajaruvchi, nazorat qiluvchi va amaliy yordam ko‘rsatuvchi Vazirlik markaziy apparati va tarkibiy bo‘linmalarga, Maktabgacha ta’lim agentligi, Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari mutaxassislari.

2-bob. Malaka (test) sinovini tashkil etish va o‘tkazish

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari tomonidan talabgorlar soniga mos holda auditoriya (sinf)lar soni va talabgorning auditoriyalarga taqsimoti to‘g‘risidagi ma’lumotlar tegishli hududda yoki binoga kirish joylaridagi hammaga ko‘rinarli joylarga osib qo‘yiladi.

5. Talabgorlar malaka sinovlari topshirish uchun shaxsini tasdiqlovchi hujjatning asl nusxasi bilan kelishlari shart.

6. Malaka sinovi http://test.uzedu.uz sayti orqali onlayn shaklda o‘tkaziladi va jami 50 ta savoldan iborat bo‘ladi.

7. Malaka sinovlarida matematika, fizika, kimyo, biologiya, informatika va axborot texnologiyalari fanlari va pedagogik mahorat uchun 120 daqiqa hamda gumanitar fanlari va pedagogik mahorat uchun 90 daqiqa vaqt beriladi.

8. Malaka sinovi o‘tkazish paytida talabgorlar har qanday sabab bilan auditoriyadan chiqishi taqiqlanadi, malaka sinovi to‘liq yakunlagan talabgorlar bundan mustasno (talabgorning sog‘lig‘i yomonlashgan hollarda auditoriya nazoratchisi va tibbiyot xodimlari kuzatuvi ostida auditoriyadan chiqishga ruxsat beriladi). Uzrsiz sabablarga ko‘ra auditoriyadan chiqqan talabgorlar qaytadan malaka (test) sinoviga qo‘yilmaydi.

9. Malaka (test) sinovi savollariga e’tirozlar bo‘lgan holatlarda, mazkur Yo‘riqnomaga 1-ilovaga muvofiq shakldagi malaka sinovlari bo‘yicha e’tiroznoma rasmiylashtiriladi.

Auditoriya rahbari kunlik malaka sinovlari yuzasidan tushgan e’tirozlarni elektron platforma tizimiga shu kunning o‘zida to‘liq kiritib boradilar.

E’tirozlar malaka sinovlari tugagach, Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi tomonidan jalb etilgan fanlar bo‘yicha ekspertlar tomonidan o‘rganib chiqiladi hamda malaka savollari bo‘yicha e’tirozlar o‘rinli deb topilganda, tegishli to‘g‘ri javoblar uchun ball qo‘shib beriladi.

10. Quyidagi holatlarda talabgor malaka sinovlari o‘tkazish tartibini buzgan hisoblanadi hamda test sinovlaridan chetlashtiriladi:

malaka sinovlari o‘tkaziladigan auditoriyaga kirishda talabgor kitob, uyali telefon, telekommunikatsiya vositalari, boshqa vositalar va shpargalkalar olib kirishga harakat qilsa yoki olib kirganligi aniqlansa;

malaka sinovlari davomida shpargalkalardan foydalansa, ularni boshqa talabgorga uzatsa yoki yordam bersa;

malaka sinovlari jarayonida boshqa talabgorlar bilan o‘zaro suhbatlashsa;

malaka savollarini yozma yoki telekommunikatsiya vositalari orqali auditoriyadan tashqariga olib chiqsa yoki olib chiqishga harakat qilsa;

malaka sinovlari jarayonida shovqin ko‘tarsa yoki boshqa talabgorlarga xalaqit bersa;

malaka sinovlari uchun ajratilgan vaqt tugamasdan ruxsatsiz auditoriyadan tashqariga chiqsa.

malaka sinovlari o‘tkazish tartibini buzgan talabgorlarga nisbatan auditoriya rahbari va nazoratchisi tomonidan mazkur Yo‘riqnomaga 2-ilovaga muvofiq shaklda malaka sinovidan chetlashtirish to‘g‘risida dalolatnoma tuzilib, malaka sinovlaridan chetlashtiriladi.

11. Talabgorlar malaka sinovidan chetlashtirilgan taqdirda, malaka sinovidan o‘tmagan hisoblanadi hamda uning to‘plagan balli inobatga olinmaydi.

12. Talabgorlar tomonidan malaka sinovlarini to‘liq yoki qisman topshirish imkoniyati bo‘lmagan quyidagi holatlarda ular uchun malaka sinovlari qayta o‘tkaziladi:

malaka sinovlarini o‘tkazish bilan bog‘liq tashkiliy-texnik nosozliklar va kamchiliklar sodir bo‘lsa;

elektr energiyasi ta’minotidagi uzilishlar sababli malaka sinovlarini o‘tkazish imkoni bo‘lmasa yoki malaka sinovlari oxiriga yetmay qolsa;

talabgorning sog‘lig‘i yomonlashganligi sababli auditoriya rahbari

yoki nazoratchisi tomonidan dalolatnoma rasmiylashtirish orqali auditoriyadan tashqariga olib chiqilgan bo‘lsa.

13. Talabgorlar uzrsiz sabablarga ko‘ra malaka sinoviga kelmagan va ishtirok etmagan taqdirda, ular uchun qo‘shimcha malaka sinovi qayta o‘tkazilmaydi.

14. Talabgorlar malaka sinovlarida uzrli sababga (vaqtincha mehnatga qobiliyatsizligi, davlat yoki jamoat vazifalarini bajarganligi, respublika va xalqaro musobaqalarda ishtirok etganligi, vaqtincha xorijiy mamlakatda safarda bo‘lganligi, yaqin qarindoshining vafoti, vakolatli davlat organi yoki ta’lim tashkilotlari rahbarlarining ma’lumotnomasida ko‘rsatilgan boshqa asoslarga) ko‘ra ishtirok etmagan bo‘lsa, ular uchun malaka sinovlari boshqa muddatda o‘tkaziladi.

15. Malaka sinovi tugaganidan so‘ng auditoriya nazoratchisi tomonidan mazkur Yo‘riqnomaga 3-ilovaga muvofiq shakldagi malaka sinovida ishtirok etganlik to‘g‘risidagi qaydnomaga talabgorning ishtirok etganligini tasdiqlovchi imzo qo‘ydirib olinadi.

4-bob. Yakuniy qoida

16. Malaka sinovini shaffof holda o‘tishini ta’minlash va nazorat qilish Vazirlik va uning tarkibiy bo‘linmalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Maktabgacha, umumiy o‘rta va
maktabdan tashqari ta’lim
tashkilotlari pedagog kadrlarini
malaka (test) sinovini o‘tkazish tartibi
to‘g‘risida yo‘riqnomaga
2-ILOVA

Malaka (test) sinovidan chetlashtirish to‘g‘risida
DALOLATNOMA
Hudud nomi___ bino____xona___guruh___ fan _____

“____” _____ 2024-yil _____

_____
(dalolatnoma tuzilgan joy nomi)

Biz, quyida imzo chekuvchilar, shuni tasdiqlaymizki, talabgor_____
(tuman(shahar), ta’lim tashkiloti nomi F.I.SH, talabgor IDsi)
Guruh____, Fan nomi_____ Fan tili _____
_____
_____
_____
(malaka (test) sinovidan chetlashtirish sababi)

Soat___:___ daqiqada malaka (test) sinovidan chetlashtirildi.

Auditoriya rahbari_____ imzo_____
Auditoriya nazoratchisi _____ imzo _____

Maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini malaka (test) sinovini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida yo‘riqnomaga
3-ILOVA

Malaka (test) sinovida ishtirok etganlik to‘g‘risida QAYDNOMA

Hudud nomi: ____ Guruh raqami: _____Sana: _____
Vaqt: ____

T.r	Tuman (shahar) nomi	Ta’lim tashkiloti raqami	F.I.SH	Test topshirilgan fan	Imzo
1.					
2.					
3.					
4.					
5.					
6.					
7.					
8.					
9.					
10.					

Auditoriya rahbari _____ imzo _____
Auditoriya nazoratchisi _____ imzo _____

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGINING BUYRUG‘I

Umumta’lim muassasalarida uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 21-iyundagi PQ-290-son qarori, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023-yil 22-sentabrdagi “Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlari faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 351-sonli buyrug‘i, shuningdek, maktab ta’limiga ilg‘or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan zamonaviy darsliklarni hamda baholash tartibini amaliyotga joriy etishda pedagog xodimlarga uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatib borishni tizimli tashkil etish maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilariga uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish tartibi 1-ilovaga muvofiq;

umumiy o‘rta ta’lim maktabining Metodbirlashmalari to‘g‘risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq;

Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limining namunaviy nizomi 3-ilovaga muvofiq;

Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi metodistlarining malaka tavsiflari 4-ilovaga muvofiq;

Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limining O‘quv-metodik kengashlari to‘g‘risidagi namunaviy nizom 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlari ikki oy muddatda mazkur buyruqning 3- va 5-ilovalari bilan tasdiqlangan nizomga muvofiq Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi hamda O‘quv-metodik kengashlari to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlasin.

3. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida Pedagogik kengash faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2016-yil

30-maydagi 6-mh-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining pedagogik kengashi to‘g‘risidagi namunaviy nizomga muvofiq tashkil etilishi inobatga olinsin.

4. O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva), Respublika ta’lim markazi metodik xizmat ko‘rsatish ishlarini mazkur buyruqning 1-ilovasi bilan tasdiqlangan tartib asosida tashkil etilishini qat’iy nazoratga olsin.

5. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari hamda Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlariga:

ikki oy muddatda umumta’lim maktablarida uzluksiz metodik yordam ko‘rsatish maqsadida tuman (shahar)larda jamoatchilik asosida “Mentorlar guruhi”ni tashkil etish;

samarali faoliyat olib borgan mentorlarni tarmoq mukofotlari bilan taqdirlashga tavsiya etish;

metodik xizmat ko‘rsatish tartibining mazmun-mohiyatini pedagoglar orasida keng targ‘ib qilish vazifalari yuklatilsin.

6. Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlari ikki oy muddatda Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi xodimlarining ta’lim muassasalarida qo‘shimcha pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishiga imkoniyat yaratish maqsadida Markazning ichki mehnat tartib-qoidalariga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2022-yil 5-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 372-sonli buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

8. Axborot xizmati (D.Sobirova) umumta’lim muassasalarida uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish tartibi joriy etilishini vazirlikning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida keng yoritib borishni ta’minlasin.

9. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazirning
birinchi o‘rinbosari **U. Sharifxodjayev**

Toshkent sh.,
2024-yil 5-yanvar,
8-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2024-yil 5-yanvardagi
8-sonli buyrug‘iga
1-ILOVA

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilariga uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish

TARTIBI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur tartib umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quv tarbiya jarayoni sifatini yanada yaxshilash, pedagog xodimlarning salohiyatini oshirish, o‘quvchilarda zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirish va ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan metodik xizmat ko‘rsatish tizimini belgilaydi.

2. Ushbu tartib Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlari, maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga tatbiq etiladi.

2-bob. Uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish tartibi

3. Umumta’lim muassasalariga uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish tizimi quyidagilardan iborat:

umumiy o‘rta ta’lim maktablarining fan Metodbirlashmalari;

umumiy o‘rta ta’lim maktablarining pedagogik kengashi;

tuman (shahar)larda “Mentorlar guruhi” (jamoatchilik asosida);

Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlari;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalaridagi O‘quvchilarda zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirishni muvofiqlashtirish sho‘balari;

Respublika ta’lim markazi;

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tasarrufidagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi.

4. Uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish tizimidagi kengash va birlashmalarning faoliyati tegishli nizom asosida tashkil qilinadi.

5. Umumiy o‘rta ta’lim maktabida fan metodbirlashma rahbarlari yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv yili davomida quyidagilarni amalga oshiradi:

Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi;

kasbiy seminar-treninglar, mahorat va ochiq darslar tashkil etadi;

manzilli metodik xizmat ko‘rsatish ishlarida (“Metodik tur”) faol ishtirok etadi;

“Ustoz-shogird” an’anasini tizimli tashkil qiladi;

ilg‘or ish tajribalarini maktab, tuman (shahar) miqyosida ommalashtirishga tavsiya qiladi;

fan yo‘nalishlari bo‘yicha tuman (shahar), viloyat va respublika miqyosidagi darslik va metodik qo’llanmalar yarmarkalarida ishtirok etadi va unga o‘qituvchilarni jalb qiladi;

metodbirlashmalararo tajriba almashishni yo‘lga qo‘yadi;

o‘qituvchilarining darslarini kuzatadi hamda ularga zaruriy tavsiyalar berib boradi;

fanni o‘zlashtirishga qiynalayotgan o‘quvchilar uchun darsdan tashqari mashg‘ulotlar tashkil etadi;

fan to‘garaklarini tashkil etadi;

mezonlarga asoslangan baholash tizimini amaliyotga joriy etilishida ishtirok etadi;

o‘quvchilar o‘rtasida ularning qiziqishlari doirasida ijodiy, intellektual tanlov, o‘yin va festivallar tashkil etadi;

o‘qituvchilar o‘rtasida kasbiy, metodik tanlov va ijodiy dekadalar tashkil etadi;

maktab rahbariyatiga faol, ilg‘or o‘qituvchilarni rag‘batlantirish uchun takliflar kiritadi;

ta’lim mazmuni bilan bog‘liq materiallar va normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatini tushuntiradi.

6. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quv-tarbiya jarayoni sifatini yanada yaxshilash, pedagog xodimlarga o‘z vaqtida metodik yordamni tashkil qilish maqsadida **har chorakda kamida bir marta** fan metodbirlashmalari yig‘ilishi o‘tkaziladi.

7. Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi xodimlari quyidagi metodik ishlarni amalga oshiradi:

Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlari huzurida O‘quv-metodik ken-

gashlar faoliyatini olib boradi;

vazirlik tomonidan taqdim etilayotgan ta’lim mazmuni bilan bog‘liq materiallar va normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatini maktab jamoasiga yetkazadi;

o‘quv rejalar hamda o‘quv dasturlarini takomillashtirish, tajriba-sinovdan o‘tkazish hamda amaliyotga joriy etishda pedagoglarga ko‘maklashadi;

yaratilgan darsliklar va o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalarni ekspertizadan o‘tkazadi;

ilg‘or o‘qituvchilar ish tajribasini ommalashtirish ishlarini tashkil etishda Respublika ta’lim markazi bilan hamkorlikda ishlaydi;

mezonlarga asoslangan baholash tizimini amaliyotga samarali joriy etish uchun umumiy o‘rta ta’lim maktablariga metodik yordam ko‘rsatadi;

umumiy o‘rta ta’lim tizimida metodik yordam ko‘rsatishni rivojlantirish, istiqbolli va dolzarb muammolarning tahlili bo‘yicha Respublika ta’lim markaziga takliflar kiritadi;

malaka oshirishga kelgan o‘qituvchilar uchun reja asosida “Metodist soati”ni o‘tadi;

maktab ta’limi sohasini rivojlantirishga bag‘ishlangan xalqaro, mintaqaviy uchrashuvlar, anjumanlar va seminarlarda ishtirok etadi;

tuman, shahar (viloyat)larda fan va yo‘nalishlar bo‘yicha mentorlarni aniqlaydi, ularning faoliyatini tashkillashtiradi;

ilg‘or ish tajribasiga ega bo‘lgan o‘qituvchilarni jalb etgan holda viloyat, tuman (shahar) seminarlarini tashkil etadi;

ta’lim dasturlari, o‘quv-uslubiy majmualar, shuningdek, murakkab mavzular yuzasidan o‘quvlarni tashkil etadi;

o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini (kreativ fikrlash, jamoada ishlash, AKT ko‘nikmalari va mediasavodxonlik, tanqidiy fikrlash, muammoni yechish va qaror qabul qilish, tadqiqotchilik ko‘nikmalari, kommunikativ ko‘nikmalari va h.k) rivojlantirishga oid mavzularda mahorat darslarini tashkil etadi;

“Loyihaga asoslangan ta’lim” bo‘yicha o‘quvlar tashkil etadi;

raqamli ta’lim resurslarni joriy etish orqali ta’lim sifatini oshirishga ko‘maklashadi;

ilmiy, metodik qo‘llanmalar, o‘quv-metodik majmualarning ochiq “Metodik yarmarka”larini tashkil etadi;

maktablarga manzilli va tizimli metodik yordam berish maqsadi-

da “Metodik- tur”larni tashkil etadi;

“Metod birlashma”lar faoliyatini muvofiqlashtiradi;

stajor-o‘qituvchilar bilan reja asosida tizimli ishlaydi;

“Mahorat maydonchalari” faoliyatini samarali tashkil etilishiga metodik yordam ko ‘rsatadi;

umumta’lim maktabi o‘qituvchilarining darslarini onlayn va oflayn kuzatib boradi, tahlil qiladi va tegishli tavsiyalarni beradi;

yangidan yaratilgan o‘quv-metodik majmualarni amaliyotga samarali tatbiq etish, pedagoglarga fanlar yo‘nalishi bo‘yicha kerakli metodik yordam berish maqsadida Respublika ta’lim markazi, Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tasarrufidagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi, A. Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti, hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalaridagi o‘quvchilarda zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirishni muvofiqlashtirish sho‘basi bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi;

oliy ta’lim muassasalari bilan fanlar yo‘nalishida hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi;

umumiy o‘rta ta’limning dolzarb masalalari va ularning natijalarini amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar, tajriba-sinovlar olib boradi, o‘quv-tarbiya jarayonini uslubiy ta’minlash masalalarida hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari bilan o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi.

8. Zaruriyatga ko‘ra Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi huzurida O‘quv metodik kengashlarni o‘tkazadi.

9. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalarining o‘quvchilarda zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirishni muvofiqlashtirish sho‘basi metodistlari quyidagi metodik xizmatlarni tashkil qilib boradi:

umumiy o‘rta ta’lim maktablarining tayanch o‘quv rejasi, o‘quv dasturlarini amaliyotga joriy etilishini ta’minlaydi;

o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini (kreativ fikrlash, jamoada ishlash, AKT ko‘nikmalari va mediasavodxonlik, tanqidiy fikrlash, muammoni yechish va qaror qabul qilish, tadqiqotchilik ko‘nikmalari, kommunikativ ko‘nikmalari va h.k) rivojlantirishga oid mavzularda mahorat darslarini tashkil etadi;

o‘qituvchilar o‘rtasida o‘zaro tajriba almashish ishlarini yo‘lga

qo‘yish maqsadida Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi fan metodistlari bilan hamkorlikda metodik yordamlar tashkil etadi;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida yuqori sinf o‘quvchilarining qobiliyati va tanlovi asosida ta’lim jarayonlarini tashkil etish uchun tanlov fanlari o‘qitilishini tashkil etadi;

“Mentorlar guruhi” faoliyatini samarali tashkil etilishini ta’minlaydi;

umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi tajriba-sinov ishlarining samarali tashkil etilishini muvofiqlashtirib boradi;

metodik xizmat yo‘nalishi bo‘yicha o‘tkaziladigan forumlar, o‘quvlarni tashkil etadi;

umumta’lim maktablarida pedagog xodimlarning dars taqsimotini qonunchilikka muvofiq to‘g‘ri taqsimlanishi bo‘yicha tushuntirish ishlarini doimiy ravishda olib boradi;

ta’lim tizimida metodik xizmatning sifati bilan bog‘liq bo‘lgan turli tadbirlar, ko‘rik-tanlovlar o‘tkazilishini muvofiqlashtiradi.

10. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi xodimlari o‘qituvchilarga quyidagi metodik xizmatlarni ko‘rsatadi:

mezonlarga asoslangan yangi baholash tizimini amaliyotga samarali joriy qilishda metodik yordam ko‘rsatib boradi;

baholash tizimini umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga joriy etish uchun o‘quvlar tashkil etib boradi;

loyihaga asoslangan ta’limning umumiy o‘rta ta’lim maktablariga joriy etilishida Respublika ta’lim markazi bilan hamkorlikda metodik yordam ko‘rsatib boradi;

o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini (kreativ fikrlash, jamoada ishlash, AKT ko‘nikmalari va mediasavodxonlik, tanqidiy fikrlash, muammoni yechish va qaror qabul qilish, tadqiqotchilik ko‘nikmalari, kommunikativ ko‘nikmalari va h.k) rivojlantirishga oid mavzularda mahorat darslarini tashkil etadi.

11. Respublika ta’lim markazining metodistlari fan o‘qituvchilariga quyidagi metodik xizmatlarni ko‘rsatadi:

fan o‘quv dasturlarini ishlab chiqadi va ulardagi yangi mavzularni o‘qitish usullari yuzasidan tavsiya beradi;

fan yo‘nalishi bo‘yicha namunaviy taqvim-mavzu reja ishlab

chiqadi;

barcha fan yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan seminarlar tashkil qiladi;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida yuqori sinf o‘quvchilarining qobiliyati va tanlovi asosida ta’lim jarayonlarini tashkil etishda metodik xizmatni amalga oshiradi;

fanlar bo‘yicha metodik qo’llanma va tavsiyalar ishlab chiqadi;

raqamli ta’lim resurslari, kontentlar ishlab chiqadi;

yaratilgan darsliklar va o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalarni ekspertizadan o‘tkazadi, ularni ta’lim tizimiga joriy etish bo‘yicha xulosa beradi;

umumta’lim fanlari o‘quv rejasi, dasturlari, yaratilgan darsliklar va o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalarni tajriba-sinovdan o‘tkazish ishlarini olib boradi;

fanlarni o‘qitish metodikasining zamonaviy uslublarini ishlab chiqadi, shuningdek, ta’lim dasturlarining integratsiyalashuviga asoslangan o‘qitishning fanlararo yondashuvini joriy qiladi va bu boradagi ijobiy tajribani umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ommalashtiradi;

o‘quv-tarbiya jarayoniga **“STEAM”** fanlarini (Science — tabiiy fanlar, Technology — texnologiyalar, Engineering — texnik ijodkorlik, Art — san’at, Mathematics — matematika) o‘qitish bo‘yicha ilg‘or pedagogik texnologiyalar va boshqa maqbul metodikalarni joriy etadi;

Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlari fan metodistlari faoliyatining samaradorligini tahlil qilib boradi;

o‘qituvchilarning ilg‘or tajribasini ommalashtirish jarayonlarini tashkil etadi;

har yangi o‘quv yili oldidan o‘tkaziladigan **“Ustozlar milliy forumi”ni** o‘tkazadi;

ta’lim sifati yuqori bo‘lmagan maktablarga manzilli metodik yordam berib borish bo‘yicha **“Metodik-tur”** xizmatini muvofiqlashtirib boradi;

Reja asosida Respublika ta’lim markazi huzuridagi Ilmiy-metodik kengash yig‘ilishlarini o‘tkazib boradi.


3-bob. Yakuniy qoidalar

12. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilariga uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatishda faol ishtirok etgan, tashabbus ko‘rsatgan va

yuqori natijalarga erishgan tizim xodimlari Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining tarmoq mukofotlari bilan taqdirlashga tavsiya etilishi mumkin.

13. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilariga uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish tartibi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining tegishli buyrug'i asosida tashkil etiladi va tugatiladi.

Umumta'lim muassasalarida uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish tizimi
TUZILMASI



O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2024-yil 5-yanvardagi
8-sonli buyrug‘iga
2-ILOVA

Umumiy o‘rta ta’lim maktabining Metodbirlashmalari to‘g‘risidagi NIZOM

1-bob.
Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom umumiy o‘rta ta’lim maktabi metodbirlashmasining maqsadi, asosiy vazifalari va ularning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Metodbirlashma - bu umumiy o‘rta ta’lim maktablari (keyingi o‘rinlarda - umumta’lim maktablari)da uzluksiz metodik xizmat tizimining bir bo‘g‘ini hisoblanib, o‘qituvchilarga metodik xizmatni amalga oshiradigan, ularning innovatsiya, tajriba-sinov ishlari va ta’lim-tarbiya jarayonlarini rivojlantirish ishlarini muvofiqlashtiradigan jamoaviy organ hisoblanadi.

3. Metodbirlashma o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalari qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining buyrug‘i va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, shuningdek, umumta’lim maktabining ustavi va ushbu nizomga amal qiladi.

4. Mazkur nizom talablari barcha umumta’lim maktablariga nisbatan tatbiq etiladi.

2-bob.
Metodbirlashmaning maqsadi va asosiy vazifalari

5. Metodbirlashmaning maqsadi o‘quv tarbiya jarayoni sifatini yanada yaxshilash, fan o‘qituvchilariga metodik yordamni tashkil etish, tegishli o‘quv fanlarni o‘qitish uslublarini takomillashtirish va o‘qitish sifatini oshirishga ko‘maklashadi.

6. Metodbirlashmaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi;

kasbiy seminar-treninglar, konferensiya, mahorat va ochiq darslari tashkil etadi;

“Metodik-tur”larda faol ishtirok etadi;

“Ustoz-shogird” an’anasini tizimli tashkil qiladi;

ilg‘or ish tajribalarini maktab, tuman (shahar) miqyosida ommalashtirishga tavsiya qiladi;

fan yo‘nalishlari bo‘yicha tuman (shahar), viloyat va respublika miqyosidagi “Metodik yarmarka”larda ishtirok etadi, o‘tkazadi va unga o‘qituvchilarni jalb qiladi;

metodbirlashmalararo tajriba almashishni yo‘lga qo‘yadi;

o‘qituvchilarning darslarini kuzatish hamda metodbirlashmada zaruriy tavsiyalar berib borilishini tashkil etadi;

fanni o‘zlashtirishga qiynalayotgan o‘quvchilar uchun darsdan tashqari mashg‘ulotlar tashkil etadi;

fan to‘garaklarini tashkil etadi;

mezonlarga asoslangan baholashni amaliyotga joriy etilishida ko‘maklashadi;

o‘quvchilar o‘rtasida ularning qiziqishlari doirasida ijodiy, intellektual tanlov, o‘yin va festivallar tashkil etadi;

o‘qituvchilar o‘rtasida kasbiy, metodik tanlov va ijodiy dekadalar tashkil etadi;

umumta’lim maktabi rahbariyatiga o‘quv, ma’naviy-ma’rifiy hamda tajriba- sinov ishlarida faol ishtirok etgan pedagog xodimlarni moddiy rag‘batlantirish to‘g‘risida taklif kiritadi.

3-bob.
Metodbirlashmalar faoliyatini tashkil etish

7. Umumta’lim maktabida boshlang‘ich ta’lim hamda 5-11-sinflarda esa alohida fanlar yoki bir-biriga yaqin bo‘lgan fanlar turkumi bo‘yicha Metodbirlashmalar faoliyat ko‘rsatadi.

8. Umumta’lim maktabida bitta fan turkumi bo‘yicha kamida uch nafar o‘qituvchi bo‘lsa, Metodbirlashma tashkil etiladi.

Agar tegishli fan bo‘yicha o‘qituvchilar soni uch nafardan kam bo‘lsa, u holda ushbu fan o‘qituvchilari shu turkumdagi fan o‘qituvchilari bilan birgalikda bitta Metodbirlashmaga birlashadi.

9. Metodbirlashma rahbari metodbirlashma a'zolari bilan kelishgan holda, maktab direktorining buyrug'i bilan, o'z yo'nalishi bo'yicha metodik ishlarni yaxshi yo'lga qo'ygan, doimiy ravishda uzluksiz metodik xizmatni tashkil eta olgan, ijodkor va tajribali o'qituvchilardan tanlab olgan holda har o'quv yili boshida tayinlanadi.

10. Umumta'lim maktabining har bir o'qituvchisi (o'rindoshlik asosida ishlayotgan o'qituvchilar ham) o'z yo'nalishlari yoki tegishli fan turkumi bo'yicha Metodbirlashmaga a'zo bo'lishi shart.

11. Metodbirlashma tarkibi umumta'lim maktabi direktorining buyrug'i bilan shakllantiriladi.

12. Metodbirlashmaning faoliyati umumta'lim maktabi direktorining o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari tomonidan nazorat qilinadi.

13. Metodbirlashma yillik ish reja asosida faoliyat ko'rsatadi.

Metodbirlashma ish rejasi metodbirlashma rahbari tomonidan ishlab chiqiladi va Metodbirlashma yig'ilishida ko'rib chiqiladi, umumta'lim maktabi direktori tomonidan tasdiqlanadi.

14. Metodbirlashma yig'ilishlari **har chorakda kamida bir marta** o'tkaziladi.

15. Metodbirlashma yig'ilishlariga boshqa Metodbirlashmalarning mavzulari yoki qiziqishlariga ta'sir etuvchi masalalarni ko'rib chiqilishida o'sha Metodbirlashma taklif etilishi lozim.

16. O'quv yili oxirida Metodbirlashma faoliyatiga oid barcha hujjatlar direktorning o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari tomonidan tahlil qilinadi.

17. Metodbirlashma ta'lim-tarbiya sifatini yanada yaxshilash bo'yicha takliflar tayyorlaydi va pedagogik kengashga taqdim etadi.

4-bob.
Metodbirlashma rahbari va a'zolarining majburiyatlari

18. Metodbirlashma rahbarining majburiyatlari:

Metodbirlashmaning ish rejasini tuzish va uning bajarilishini nazorat qilish;

yosh o'qituvchilarga uslubiy yordam ko'rsatish;

tegishli fanlarni o'qitish sifatiga e'tibor berish, Metodbirlashma faoliyati yuzasidan pedagogik kengashga hisobot berish;

taqvim-mavzu rejalarning o'qituvchilarga yetkazilishini ta'minlash;

ochiq dars hamda mahorat darslarini tashkillashtirish.

19. Metodbirlashma har bir a'zosining majburiyatlari:

har bir o'qituvchi kamida bitta Metodbirlashmaga a'zo bo'lishi;

Metodbirlashma o'tkazadigan yig'ilishlari va tadbirlarda qatnashishi;

uzluksiz kasbiy rivojlanish uchun doimiy harakatda bo'lish;

pedagogning huquqiy-me'yoriy faoliyatini bilishi va unga amal qilishi;

formativ va summativ baholash jarayonlarini to'g'ri tashkil etish;

pedagogik faoliyatida o'z-o'zini tahlil qilib borishi lozim.

5-bob.
Metodbirlashmaning huquqlari

20. Metodbirlashma quyidagi huquqlarga ega:

umumta'lim maktabi rahbariyatiga fan to'garaklarini tashkil qilish yuzasidan takliflar kiritadi;

umumta'lim maktablarida yuqori sinf o'quvchilarining qobiliyati va tanlovi asosida ta'lim jarayonlarini tashkil etishda ishtirok etadi;

Metodbirlashma a'zolarining malakasini oshirishga doir takliflar beradi;

Majburiyatlarini bajarmagan o'qituvchilarga amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan tartib bo'yicha chora ko'rish yoki faol, yaxshi ishlagan o'qituvchilarni rag'batlantirish uchun maktab direktoriga taklif kiritadi.

6-bob.
Metodbirlashma hujjatlari

21. Metodbirlashma faoliyatiga doir quyidagi hujjatlar bo'lishi lozim:

Metodbirlashmaning tasdiqlangan yillik ish rejasi;

yig'ilish bayonnomasi;

yillik hisoboti.

22. Metodbirlashma hujjatlarining yuritilishi va saqlanishiga Metodbirlashma rahbari javobgar hisoblanadi.

Metodbirlashmaning yillik ish rejasi, yig'ilish bayonnomasi, hisoboti uch yil mobaynida saqlanadi hamda hamda tegishli arxivga topshiriladi.

7-bob.
Moddiy rag‘batlantirish

23. Umumta’lim maktablarida fan metodbirlashma rahbarlarini qo’shimcha qo‘llab-quvvatlash O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi 823-son qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘rnak ko‘rsatgan xodimlarini rag‘batlantirishning direktor jamg‘armasini tashkil etish va uning mablag‘laridan foydalanish tartibi to‘g‘risida nizom”ga muvofiq amalga oshiriladi.

8-bob.
Yakuniy qoidalar

24. Metodbirlashma qarorlarini bajarish Metodbirlashmaning har bir a’zosi uchun majburiy bo‘lib, qarorlar ijrosining umumiy nazorati Metodbirlashma rahbari tomonidan amalga oshiriladi.

25. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2024-yil 5-yanvardagi
8-sonli buyrug‘iga
3-ILOVA

Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi
Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi to‘g‘risidagi
NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 21-iyundagi PQ-290-son qarorining 11-bandi asosida Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlari (keyingi o‘rinlarda - Milliy markaz) tuzilmasida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan **Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limining** asosiy vazifalari va funksiyalarini, huquqlarini, shuningdek, faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlari faoliyati Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi (keyingi o‘rinlarda — Respublika ta’lim markazi) tomonidan muvofiqlashtiriladi.

3. Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlarining rahbarlarini ishga qabul qilish Respublika ta’lim markazi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi va Milliy markaz rahbari tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda lavozimidan ozod etiladi.

4. Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlari xodimlarining malakasini doimiy oshirib borish, ularni ko‘rsatma materiallari bilan ta’minlash vazifasi Respublika ta’lim markazi va Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi zimmasiga yuklatiladi.

5. Milliy markazlar Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlari faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi. Bo‘limning moddiy-texnik bazasini mustahkamlaydi.

6. Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlari o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublika-

si Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining buyruqlariga, mazkur Nizom va boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

7. Bo'limning rasmiy nomi:

a) davlat tilida:

to'liq nomi - Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi;

b) rus tilida:

to'liq nomi - Отдел методической службы;

v) ingliz tilida:

to'liq nomi - Methodical service department.

2-bob. Metodik xizmat ko'rsatish bo'limining vazifalari va funksiyalari

8. Metodik xizmat ko'rsatish bo'limining asosiy vazifalari va funksiyalari quyidagilardan iborat:

Metodik xizmat ko'rsatish bo'limlari huzurida o'quv-metodik kengashlari faoliyatini olib boradi;

ta'lim mazmuni bilan bog'liq vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlar tomonidan taqdim etilayotgan materiallar va normativ hujjatlarning mazmun-mohiyatini maktab jamoasiga yetkazadi;

o'quv rejalar hamda o'quv dasturlarini takomillashtirish, tajriba-sinovdan o'tkazish hamda amaliyotga joriy etishda pedagoglarga ko'maklashadi;

yaratilgan darsliklar va o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalarni ekspertizadan o'tkazadi;

ilg'or o'qituvchilar ish tajribasini ommalashtirish ishlarini tashkil etishda Respublika ta'lim markazi bilan hamkorlikda ishlaydi;

mezonlarga asoslangan baholash tizimini amaliyotga samarali joriy etish uchun umumiy o'rta ta'lim maktablariga metodik yordam ko'rsatadi;

umumta'lim maktablarida metodik yordam ko'rsatishni rivojlantirish, istiqbolli va dolzarb muammolarning tahlili bo'yicha Respublika ta'lim markaziga takliflar kiritadi;

"Mentorlar guruhi" faoliyatini samarali tashkil etilishini ta'minlaydi;

malaka oshirishga kelgan o'qituvchilar uchun reja asosida "Metodist soati"ni o'tadi;

maktab ta'limi sohasini rivojlantirishga bag'ishlangan xalqaro, mintaqaviy uchrashuvlar, anjumanlar va seminarlarda ishtirok etadi;

tuman, shahar (viloyat)larda fan va yo‘nalishlar bo‘yicha mentorlarni aniqlaydi, ularning faoliyatini tashkillashtiradi;

ilg‘or ish tajribasiga ega bo‘lgan o‘qituvchilarni jalb etgan holda viloyat, tuman (shahar) seminarlarini tashkil etadi;

ta’lim dasturlari, o‘quv-uslubiy majmualar, shuningdek, murakkab mavzular yuzasidan o‘quvlarni tashkil etadi;

o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishga oid mavzularda mahorat darslarini tashkil etadi;

“Loyihaga asoslangan ta’lim” bo‘yicha o‘quvlar tashkil etadi;

raqamli ta’lim resurslarni joriy etish orqali ta’lim sifatini oshirishga ko‘maklashadi;

ilmiy, metodik qo‘llanmalar, o‘quv-metodik majmualarning ochiq “Metodik yarmarka”larini tashkil etadi;

umumta’lim maktablariga manzilli va tizimli metodik yordam berish maqsadida “Metodik-tur”lar tashkil etadi;

“Metod birlashma”lar faoliyatini muvofiqlashtiradi;

stajor-o‘qituvchilar bilan reja asosida tizimli ishlaydi;

“Mahorat maydonchalari” faoliyatini samarali tashkil etilishiga metodik yordam ko ‘rsatadi;

umumta’lim maktabi o‘qituvchilarining darslarini onlayn va oflayn kuzatib boradi, tahlil qiladi va tegishli tavsiyalarni beradi;

yangidan yaratilgan o‘quv-metodik majmualarini amaliyotga samarali tatbiq etish, pedagoglarga fanlar yo‘nalishi bo‘yicha kerakli metodik yordam berish maqsadida Respublika ta’lim markazi, Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi, A. Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti, shahar (viloyat)lar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalaridagi O‘quvchilarda zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirishni muvofiqlashtirish sho‘basi bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi;

oliy ta’lim muassasalari bilan fanlar yo‘nalishida hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi;

umumiy o‘rta ta’limning dolzarb masalalari va ularning natijalarini amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar, tajriba-sinovlar olib boradi, o‘quv-tarbiya jarayonini uslubiy ta’minlash masalalarida hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari bilan o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi.

3-bob. Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘liminmg huquqlari va majburiyatlari

9. Vakolati doirasida maktabgacha va maktab ta’limi sohasida xo‘jalik yurituvchi subyektlardan Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi ishi uchun kerak bo‘lgan material va ma’lumotlarni so‘rash;

tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari va ta’lim muassasalariga metodik ko‘rsatmalar yuborish;

maktabgacha va maktab ta’limi sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish, berilgan vakolatlar doirasida qo‘yilgan alohida vazifalar va funksiyalarni bajarish maqsadida hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqaruv organlari bilan kelishilgan holda umumta’lim maktablari bilan hamkorlik qilish;

Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi faoliyatiga tegishli masalalar yuzasidan takliflarni tegishli tartibda ko‘rib chiqish uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari Hay’at yig‘ilishi masalalariga kiritib borish;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari bilan kelishgan holda, muassasalar rahbarlari va mutaxassislari bilan darslik mualliflari ishtirokida o‘quv-seminarlar, uchrashuvlar, davra suhbatlari, tadbirlar tashkillashtirish va o‘tkazish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgacha va maktab ta’limi sohasini isloh qilish bo‘yicha hujjatlari, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining buyruqlari va normativ-huquqiy hujjatlari, Vazirlik Hay’ati qarorlari, hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqaruv organlari rahbariyatining Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi faoliyatiga tegishli ko‘rsatmalari ijrosini ta’minlash bo‘yicha tizimli monitoringni amalga oshirish;

ishlab chiqiladigan davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari, darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni ekspertizadan o‘tkazish, xulosalar berish jarayonlariga ilg‘or tajribali amaliyotchi o‘qituvchi, metodistlarni jalb qilish;

yuqori mehnat ko‘rsatkichlariga erishgan Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi metodistlarini davlat mukofotlari va idoraviy mukofotlar bilan taqdirlash uchun hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalariga taklif kiritish;

Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi xodimlarini innovatsion pedagogik texnologiyalar va ilg‘or metodikalarni o‘rganish va tajriba almashish maqsadida amaliyot o‘tash, o‘qish, seminar va konferensiyalarda ishtirok etish uchun chet elga yuborish yuzasidan takliflar berish;

Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi faoliyatini keng yoritish maqsadida ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish, rasmiy veb-saytlar yaratish, ijtimoiy tarmoqlarda sahifalar ochish va yangilab borish;

Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega.

10. Ushbu Nizomda belgilangan vazifalar va funksiyalarni bajarish;

O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining buyruqlari va Vazirlik Hay’ati qarorlari, Respublika ta’lim markazi, Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi, hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqaruv organlari, Milliy markaz rahbariyatining Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi faoliyatiga tegishli ko‘rsatmalariga rioya qilish va bajarilishini ta’minlash;

Ushbu Nizomda ko‘zda tutilgan huquqlardan to‘g‘ri foydalanish.

4-bob. Bo‘lim faoliyatini tashkil etish

11. Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi o‘z faoliyatida bevosita Milliy markazlar, Respublika ta’lim markazi, Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga bo‘ysunadi va hisobot beradi.

12. Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limiga Respublika ta’lim markazi bilan kelishilgan holda Milliy markaz rahbari tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan bo‘lim boshlig‘i boshchilik qiladi.

13. Quyidagilar Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi boshlig‘ining asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari va boshqa normativ- huquqiy hujjatlar hamda ushbu Nizom talablariga rioya qilish;

Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi faoliyatiga umumiy rahbarlik qi-

lish, uning o‘quv-metodik, ilmiy-tadqiqot va ma’naviy-ma’rifiy ishlarini samarali tashkil etish;

Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limining yillik ish-rejasini Milliy markazi bilan kelishilgan holda Respublika ta’lim markazi tomonidan tasdiqlatish;

Respublika ta’lim markazining Ilmiy-metodik kengashi tomonidan har chorak yakunida o‘tkaziladigan Ilmiy metodik kengash yig‘ilishida bo‘lim boshlig‘i va zarur holda metodistlarning ishtirok etishi;

metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi xodimlarining vakolatlarini belgilash, ular o‘rtasida majburiyatlarni taqsimlash;

metodistlarning hisobotlarini eshitish;

metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi faoliyatiga taalluqli masalalar bo‘yicha tezkor majlislar o‘tkazish;

xodimlarni intizomiy jazoga tortish va rag‘batlantirish masalalari yuzasidan rahbariyatga taklif kiritish;

jamoa ichida sog‘lom ma’naviy va ijodiy muhitni shakllantirish choralarini ko‘rish;

sanitariya-gigiyena, mehnatni muhofaza qilish qoidalari, texnik va yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta’minlash;

metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi boshlig‘i qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega.

14. Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi boshlig‘i bo‘lmagan davrda uning vakolatlarini Milliy markazi rahbariyati tomonidan belgilangan fan metodisti bajaradi.

15. Umumiy o‘rta ta’lim tizimiga oid masalalarni ko‘rib chiqish uchun Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limida yo‘nalishlar bo‘yicha O‘quv-metodik kengashlar tashkil etiladi.

O‘quv-metodik kengashlar tarkibi va ish rejasi Respublika ta’lim markazi bilan kelishilgan holda Milliy markaz tomonidan tasdiqlanadi.

O‘quv-metodik kengashlarning ish tartibi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘liminmg yillik ish rejasiga muvofiq tashkil etiladi.

5-bob. Bo‘limni moliyalashtirish va moddiy-texnik ta’minlash, xodimlarning mehnatiga haq to‘lash va moddiy rag‘batlantirish

14. Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlari faoliyatini tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar Milliy markazlarga ajratiladigan mablag‘lar hisobidan moliyalashtiriladi.

15. Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlari metodistlarining bazaviy tarif stavkasi miqdori umumiy o‘rta ta’lim muassasalari oliy toifali o‘qituvchisining bazaviy tarif stavkasiga, bo‘lim boshliqlariniki esa — umumiy o‘rta ta’lim muassasalari oliy toifali o‘qituvchisi bazaviy tarif stavkasi miqdorining **1,1 baravariga** tenglashtiriladi.

16. Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlari xodimlari lavozim maoshiga nisbatan 50 foiz miqdorda choraklik moddiy rag‘batlantirish mumkin.

6-bob. Yakunlovchi qoida

17. Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limini qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

18. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2024-yil 5-yanvardagi
8-sonli buyrug‘iga
4-ILOVA

Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish Milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi metodistlarining malaka tavsiflari

1. Lavozim vazifalari:

ta’lim mazmuni bilan bog‘liq vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlar tomonidan taqdim etilayotgan materiallar va normativ hujjatlarning mazmun- mohiyatini maktab jamoasiga yetkazib bera olishi;

o‘quv rejalar hamda o‘quv dasturlarini takomillashtirish, tajriba-sinovdan o‘tkazish hamda amaliyotga joriy etishda pedagoglarga ko‘maklashishi;

yaratilgan darsliklar va o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalarni ekspertizadan o‘tkazishi;

ilg‘or o‘qituvchilar ish tajribasini ommalashtirish ishlarini tashkil etishda Respublika ta’lim markazi bilan hamkorlikda ishlashi;

malaka oshirishga kelgan o‘qituvchilar uchun reja asosida “Metodist soati”ni o‘tishi;

tuman, shahar (viloyat)larda fan va yo‘nalishlar bo‘yicha mentorlar faoliyatini tashkil eta olishi;

ilg‘or ish tajribasiga ega bo‘lgan o‘qituvchilarni jalb etgan holda viloyat, tuman (shahar) seminarlarini tashkil eta olishi;

ta’lim dasturlari, o‘quv-uslubiy majmualar, shuningdek, murakkab mavzular yuzasidan o‘quvlarni tashkil eta olishi;

o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishga oid mavzularda mahorat darslarini tashkil eta olishi;

mezonlarga asoslangan baholash tizimini amaliyotga samarali joriy etish uchun umumiy o‘rta ta’lim maktablariga metodik yordam ko‘rsatishi;

raqamli ta’lim resurslarni joriy etish orqali ta’lim sifatini oshirishga ko‘maklashishi;

maktablarga manzilli va tizimli metodik yordam berish maqsadida “Metodik- tur”lar tashkil eta olishi

“Metod birlashma”lar faoliyatini muvofiqlashtira olishi;

stajor-o‘qituvchilar bilan reja asosida tizimli ishlay olishi zarur.

2. Bilishi lozim:

davlatimizning maktabgacha va maktab ta'limiga oid va bolalar huquqlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni;

mutaxassisligi bo'yicha yangiliklarni, psixologiya-pedagogika fani yutuqlarini va hayotga tatbiq etish yo'llarini;

metodik ishlarni tashkil etish va samaradorligini oshirish usullarini;

o'quvchilarning o'quv fani bo'yicha milliy o'quv dasturi va talablarini o'zlashtirish monitoringini olib borish va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yo'llarini;

milliy o'quv dasturi, o'quv reja, xalqaro tan olingan ta'lim dasturlari va boshqa o'quv-metodik hujjatlarning mazmuni hamda o'quv jarayoniga tatbiq etish yo'llarini;

o'z metodistlik yo'nalishidagi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar bo'yicha to'liq tushunchaga ega bo'lishi;

kasbiy odob-axloq qoidalari, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalarini.

3. Malaka talablari:

tegishliligi bo'yicha mutaxassisligi to'g'ri keluvchi kamida bakalavr darajasidagi oliy pedagogik ma'lumot;

xorijiy tillardan birining boshlang'ich darajasini va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni bilishi;

3 yildan kam bo'lmagan pedagogik yoki maktabgacha va maktab ta'limi boshqaruv organlaridagi ish staji.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2024-yil 5-yanvardagi
8-sonli buyrug‘iga
5-ILOVA

Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limining O‘quv metodik kengashi to‘g‘risidagi

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limining O‘quv metodik kengashi to‘g‘risidagi (keyingi o‘rinlarda - O‘quv-metodika kengashi) faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. O‘quv-metodika kengash o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining buyruqlari, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar va ushbu Nizomga amal qiladi.

3. Mazkur Nizom talablari Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limining O‘quv metodik kengashiga nisbatan tatbiq etiladi.

2-bob. O‘quv-metodik kengashining maqsadi va asosiy vazifalari

4. O‘quv-metodik kengashning maqsadi fan o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga ko‘maklashish, umumta’lim maktablarida ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish, zamonaviy ta’lim texnologiyalari, ilg‘or ish tajribalar va metodik ishlarni ommalashtirish, baholashning yangi tizimini joriy etish, ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy usullarini ta’lim muassasalarida amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

5. O‘quv-metodik kengashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

umumta’lim maktablariga o‘quv dasturlari, darsliklar, metodik qo‘llanmalarning o‘quv jarayoniga tatbiq etilishida amaliy yordam ko‘rsatadi;

fan o‘qituvchilarining kasbiy mahoratlarini oshirish bo‘yicha tav-

siyalar beradi;

ta’lim muassasalari uchun yaratilgan metodik tavsiyalar va kichik hajmdagi uslubiy qo‘llanmalarni muhokama qiladi va ularni chop etishga tavsiya etish yoki qayta ishlash, takomillashtirish yuzasidan xulosalar beradi;

umumta’lim fanlari o‘quv dasturlari, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalarni takomillashtirish bo‘yicha takliflar beradi;

ilmiy-uslubiy ishlar samaradorligini oshirish hamda o‘qituvchilarning yaratayotgan yangiligi bo‘yicha tavsiyalar va amaliy yordamlar berib boradi.

3-bob. O‘quv-metodik kengashining faoliyatini tashkil etish

6. Milliy markazlardagi Metodik xizmat bo‘limida O‘quv-metodik kengash tashkil etiladi:

boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi;

filologiya fanlari (ona tili va adabiyot, o‘zbek tili, qardosh tillar) yo‘nalishi;

rus va xorijiy tillar fanlari yo‘nalishi;

ijtimoiy fanlar (tarix, davlat va huquq asoslari, tarbiya) yo‘nalishi;

aniq fanlar (matematika, informatika va axborot texnologiyalari) yo‘nalishi;

tabiiy va iqtisodiy fanlar (fizika, kimyo, biologiya, geografiya va iqtisodiyot, tabiiy fanlar) yo‘nalishi;

amaliy fanlar (musiqa madaniyati, tasviriy san’at, texnologiya) yo‘nalishi;

jismoniy tarbiya (jismoniy tarbiya, chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik) yo‘nalishi.

7. O‘quv-metodik kengash tarkibi, Metodik xizmat bo‘limlarining metodistlari, ijodkor, tajribali o‘qituvchilar va mutaxassislardan iborat bo‘ladi.

Shuningdek, O‘quv-metodik kengashi tarkibiga jamoatchi salohiyatli olimlar, amaliyotchi pedagog va metodistlar shuningdek, turli sohalarning yetakchi mutaxassislari, jamoat tashkilotlar vakillari kirishi mumkin. O‘quv-metodik kengash a’zolari yo‘nalishlar bo‘yicha 9-11 nafardan iborat bo‘ladi.

Kengash tarkibining kamida ellik foizi shu sohada doimiy ishlovchi xodimlardan iborat bo‘lishi zarur.

8. O‘zining metodik ishlari bilan shu sohada tanilgan mutaxassis O‘quv-metodika kengashi raisi etib belgilanadi.

O‘quv-metodik kengash raisi jamoatchilik asosida kengashga rahbarlik qiladi va yig‘ilishlarda ko‘riladigan masalalarni tayyorlashga boshchilik qiladi.

9. O‘quv-metodik kengash tarkibi Milliy markaz buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

10. Kengash a’zolari milliy o‘quv dasturlarining bajarilishi borasida olib borilayotgan ishlarni o‘rganadi va tavsiyalar tayyorlaydi. Ta’lim muassasalariga o‘quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish yuzasidan takliflar taqdim etadi.

11. O‘quv-metodik kengash kotibi kengash a’zolari ichidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ochiq ovoz berish yo‘li bilan saylanadi.

Kengash kotibi yig‘ilishda ko‘rib chiqiladigan materiallarni tayyorlaydi, hujjatlarni rasmiylashtiradi.

O‘quv-metodik kengashlar qarorlari kengash yig‘ilishi bayonnomalari orqali rasmiylashtiriladi va amalga oshiriladi.

12. O‘quv-metodik kengash yig‘ilishlari har chorakda bir marta o‘tkaziladi va yig‘ilish bayonlari rasmiylashtirib boriladi. Zarur hollarda, navbatdan tashqari yig‘ilishlar o‘tkazilishi mumkin.

13. O‘quv-metodik kengashlarning yillik ish rejasi tuziladi va kengash raisi tomonidan tasdiqlanadi.

4-bob. O‘quv-metodik kengashlarda muhokamalarni o‘tkazish tartibi

14. Muhokamaga berilayotgan metodik materiallar (tavsiya, metodik qo‘llanmalar va hokazo) ikki nusxada tayyorlanib, metodist, amaliyotchining bergan 3 ta taqrizi, ta’lim muassasasining yig‘ilish qarori bilan O‘quv-metodik kengashlarining kotibiga topshiriladi.

Kotib qo‘lyozmani ro‘yxatga oladi va muhokamaga qo‘yish uchun tayyorlaydi.

O‘quv-metodik kengash raisi va kotibi kengash qarorlari bajarilishining muntazam ravishda monitoringini olib boradi va qabul qilingan qarorlar ijrosi to‘g‘risida kengash a’zolariga hisobot beradi.

O‘quv-metodik kengashlar a’zolari kengash majlisida ko‘rib chiqilgan masalalar yuzasidan qabul qilingan qarorlar to‘g‘ri va aniq bajarilishi uchun javob beradi.

15. Qo‘lyozma ro‘yxatdan o‘tkazilgandan keyin 1 oy muddat ichida kamida uch nafar soha mutaxassislaridan (shulardan bir nafari kengash a’zosi bo‘lishi shart) taqriz olinadi.

Muallif yoki mualliflar guruhi a’zolari muhokamadan kamida bir

hafta oldin taqrizlar bilan tanishtiriladi, taqrizda bildirilgan takliflarni inobatga olish, mavjud kamchiliklar va nuqsonlarni bartaraf etish uchun mualliflarga imkoniyat beriladi.

16. Kengash kotibi tomonidan kengash a'zolari va mualliflar ikki hafta oldin yig'ilishning sanasi va vaqti haqida xabardor qilinadi.

17. O'quv metodik kengash bayonnomalari, ish rejasi, hisoboti 3 yil mobaynida saqlanadi hamda hududiy maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalarining idoraviy arxiviga topshiriladi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2023-yil 29-dekabrdagi PQ-422-son qarori ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 29-dekabrdagi PQ-422-son hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida dasturiy byudjetlashtirish tizimini joriy etishda byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarning byudjet dasturlarini ishlab chiqish, monitoringini yuritish va ularning samaradorligini baholash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2024-yil 4-yanvardagi 4-sonli qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman**:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonun ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-422-sonli qarori (keyingi o‘rinlarda qaror) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. **Qaror bilan:**

vazir va vazir o‘rinbosarlari budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi uchun shaxsan mas’ulligi;

har chorak yakuni bo‘yicha har bir tarkibiy bo‘linmalarning maqsadli indikator ko‘rsatkichlari bajarilishi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisida tizimli va tanqidiy tahlil qilinib borilishi hamda maqsadli indikator ko‘rsatkichlari bajarilishida sustkashlik va mas’uliyatsizlikka yo‘l qo‘ygan tegishli tarkibiy bo‘linmalari rahbarlariga ta’sirchan choralar ko‘rilishi;

har olti oyda birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarning budjet mablag‘laridan foydalanishi bilan bog‘liq maqsadli in-

dikatorlari bajarilishi yuzasidan vazirliklar va idoralar rahbarlarining Qonunchilik palatasi qo‘mitalarida hisobotlarini eshitib borilsin;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, vazirliklar va idoralari tomonidan undiriladigan ayrim turdagi davlat bojlari, majburiy yig‘imlar, to‘lovlar, jarimalar va ajratmalar taqsimoti tasdiqlanganligi;

Hisob palatasi tomonidan hisobot yili yakuni bo‘yicha birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarning budjet mablag‘laridan foydalanishi bilan bog‘liq maqsadli indikatorlari bajarilishini auditdan o‘tkazish tartibi joriy etilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. **Quyidagilar:**

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2024-2026-yillar uchun budjet mablag‘laridan foydalanish bilan bog‘liq maqsadli indikatorlari (keyingi o‘rinlarda maqsadli indikator) **1-ilovaga** muvofiq;

byudjet dasturi ijrosini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi **2-ilovaga** muvofiq;

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan undiriladigan ayrim turdagi davlat bojlari, majburiy yig‘imlar, to‘lovlar, jarimalar va ajratmalar taqsimoti **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Belgilansinki, **vazir o‘rinbosari T.Komilov** budjet dasturlarini ishlab chiqish, amalga oshirish, monitoringini yuritish va hisobotlarni tayyorlash bilan bog‘liq jarayonlarni muvofiqlashtirish uchun mas’ul etib biriktirilsin.

5. Maqsadli indikatorlar ijrosiga **mas’ul tarkibiy bo‘linmalariga:**

maqsadli indikatorlarining ijrosi bo‘yicha hududlar (ta’lim muassasalari) kesimida doimiy monitoringini yuritib borish;

maqsadli indikatorlari bo‘yicha hisobot choragidan keyingi oyning **5 sanasiga** chora-tadbirlar dasturlarini o‘z vaqtida ijrosini ta’minlash, belgilangan hisobotlarni shakllantirish va **Axborot-tahlil va ijro intizomi boshqarmasiga** taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

6. **Axborot-tahlil va ijro intizomi boshqarmasi** (Sh.Muxamedov) **hisobot choragidan keyingi oyning 10-sanasiga qadar** tarkibiy bo‘linmalar tomonidan taqdim etilgan maqsadli indikatorlarning ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni umumlashtirsin va **Ichki audit va moliyaviy nazorat departamenti**ga baholash uchun taqdim etsin.

7. **Ichki audit va moliyaviy nazorat departamenti** (M.Faxrutdinov) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 4-yanvardagi 4-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida dasturiy budjetlashtirish tizimini joriy etishda budjet

mablag‘larini taqsimlovchilarning budjet dasturlarini ishlab chiqish, monitoringini yuritish va ularning samaradorligini baholash tartibi to‘g‘risidagi nizom (keyingi o‘rinlarda – Nizom) asosida budjet dasturlarining ijrosi bo‘yicha choraklik hisobotlarni tahlil etib, baholasin.

Bunda:

Axborot-tahlil va ijro intizomi boshqarmasi tomonidan taqdim etilgan hisobotlari choraklik va yillik shaklda baholanadi;

budjet dasturlarining ijrosini baholashning xolisligi va ishonchliligini ta’minlansin va soha faoliyatida manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilmaydi;

hisobotda keltirilgan maqsadli indikatorlarning to‘liqligi va belgilangan talablarga muvofiqligi, shuningdek, ularning ijrosi to‘g‘risida ma’lumotlar aks ettirilganligini o‘rganiladi;

mablag‘ taqsimlovchi organ tomonidan budjet mablag‘larini bir budjet dasturidan boshqa budjet dasturiga qayta taqsimlash jarayonida budjet dasturlaridagi o‘zgarishlarning to‘g‘ri shakllantirilganligi tahlil qilinadi;

budjet dasturlarining ijrosi bo‘yicha hisobotlarning haqqoniyligi va ko‘rsatkichlarni statistika ma’lumotlariga muvofiq shakllantirilganligi o‘rganiladi;

davlat moliyaviy nazorati organlari tomonidan budjet dasturlari ijrosi yuzasidan o‘tkazilgan nazorat tadbirlarida aniqlangan kamchiliklarning bartaraf etilishi hamda berilgan taklif va tavsiyalar bo‘yicha amalga oshirilgan ishlari o‘rganiladi;

avvalgi baholash natijalari asosida berilgan taklif va tavsiyalarning bajarilishi hamda uning natijalari tahlil qilinadi;

mas’ul bo‘linmalar tomonidan tayyorlangan maqsadli indikatorlarining ijrosi to‘g‘risidagi ma’lumotlar tahlil qilinadi;

budjet dasturlarining ijrosini baholash natijalari bo‘yicha ma’lumotnoma rasmiylashtiriladi.

8. **Axborot-tahlil va ijro intizomi boshqarmasi** (Sh.Muxamedov) maqsadli indikatorlarining ijrosi bo‘yicha choraklik hisobotlar va samaradorlik Ichki audit va moliyaviy nazorat departamenti tomonidan rasmiylashtirilgan ma’lumotnomalarni hisobot choragi yakuni bilan keyingi oyning 20-sanasiga qadar hamda yillik hisobotni hisobot yilidan keyingi yilning 20-fevraliga qadar UzASBO dasturi orqali rasmiylashtirsin hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligiga yuborsin.

9. **Axborot xizmati** (D.Sobirova), **Axborot-tahlil va ijro intizo-**

mi boshqarmasi (Sh.Muxamedov) **hisobot choragidan keyingi oyning 25-sanasiga qadar** maqsadli indikatorlarning ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni vazirlikning rasmiy veb-saytida joylashtirib borsin.

10. **Axborot-tahlil va ijro intizomi boshqarmasi** (Sh.Muxamedov), **Moliya-iqtisod departamenti** (I.Siradjev) tarkibiy bo‘linmalar bilan birgalikda:

har yili 1-mayga qadar o‘rta muddatli davr uchun sohani rivojlantirish dasturlari (konsepsiya va strategiyalar), O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, shuningdek, milliy barqaror rivojlanish maqsadlarida belgilangan maqsad va vazifalarga muvofiq budjet dasturlarining dastlabki ro‘yxati va hisob-kitoblarini shakllantirsin;

har yili 1-avgustga qadar dastlabki ro‘yxat va hisob-kitoblarining yakuniy loyihasini O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etilishini ta’minlasin;

kelgusi yil uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti to‘g‘risidagi Qonuni tasdiqlangandan so‘ng **besh ish kun** ichida tasdiqlangan budjet parametrlariga muvofiq budjet dasturlarini qayta ko‘rib chiqsin hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligiga ro‘yxatdan o‘tkazish uchun Nizomga muvofiq taqdim etsin;

moliya yili davrida Qonunga o‘zgartirishlar kiritilganda yoki mablag‘ taqsimlovchi organlarning budjet dasturlari uchun ajratilgan mablag‘lar qayta taqsimlanganda, mablag‘ taqsimlovchi organlar tomonidan **besh ish kuni ichida** budjet dasturlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin hamda Nizomga muvofiq Iqtisodiyot va moliya vazirligiga ro‘yxatdan o‘tkazish uchun taqdim etsin.

11. Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, tuman (shahar) Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlariga ilovaga muvofiq belgilangan samaradorlik indikatorlariga erishilishi yuzasidan **shaxsiy javobgarlik yuklatilsin** hamda har choraklik natijalari bo‘yicha vazirlikka axborot kiritib borsin.

12. **Yuridik boshqarma** (X.Asrorov) tarkibiy bo‘linmalar bilan birgalikda **ikki oy muddatda** qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqib o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Iqtisodiyot va moliya vazirligiga takliflar kiritsin.

13. **Devonxona** (D.Isxakova) mazkur buyruqni Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, tuman (shahar) Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari hamda vazirlik tasarrufidagi muassasalar va tashkilotlarga yetkazilishini ta’minlasin.

14. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2024-yil 5-yanvar,
9-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2024-yil 5-yanvardagi
9-sonli buyrug‘iga
1-ILOVA

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2024-2026-yillar uchun byudjet mablag‘laridan foydalanish bilan bog‘liq
MAQSADLI INDIKATORLARI

T/r	Davlat dasturi va indikatorlar nomi	O‘lchov birligi	2024-yil prognoz	Shundan, chorak bo‘yicha				Indikatorlarga erishish uchun mas’ul vazirlikning tarkibiy bo‘linmalari
				I	II	III	IV	
1.	**Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining joriy xarajatlari bo‘yicha erishiladigan natijalar**							
	Yakuniy natija ko‘rsatkichi							
1.1.	Xorijiy til *(ingliz, fransuz, nemis, ispan, italyan, arab, xitoy, yapon, koreys, turk)* bo‘yicha kamida B2 darajadagi xalqaro tan olingan yoki unga tenglashtirilgan milliy sertifikatga ega bo‘lgan xorijiy til o‘qituvchilari ulushi *(jami xorijiy til o‘qituvchilari soniga nisbatan)*	foizda	**35**	30	30	35	35	Xorijiy tillarni o‘rganishi ommalashtirish boshqarmasi **Sh.Temirova,** Hududiy boshqarmalar

T/r	Davlat dasturi va indikatorlar nomi	O‘lchov birligi	2024-yil prognoz	Shundan, chorak bo‘yicha				Indikatorlarga erishish uchun mas’ul vazirlikning tarkibiy bo‘linmalari
				I	II	III	IV	
1.2.	Prezident maktablari bitiruvchilarining xalqaro A-LEVEL sertifikatidan yuqori (A-C) natijani qo‘lga kiritish darajasi *(jami bitiruvchilar soniga nisbatan)*	foizda	**70**			70		Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi **X.Xusanov**, Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi **A.Ubbiyev**
1.3.	Prezident maktablari bitiruvchilarining xalqaro IELTS va SAT sertifikatlaridan (6,5 balldan) yuqori natijani qo‘lga kiritish darajasi *(jami bitiruvchilar soniga nisbatan)*	foizda	**82**			82		
1.4.	Maktabgacha ta’lim bilan qamrov darajasi	foizda	**76**	74	74	75	76	Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi **L.Berdiyeva**, Hududiy boshqarmalar
	Bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) natija ko‘rsatkichi							
1.5.	Umumta’lim maktablaridagi o‘qituvchilar orasida oliy ma’lumotli o‘qituvchilar (jami o‘qituvchilar soniga nisbatan)	foizda	**95,5**	87,4	87,4	95,5	95,5	Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi **I.Sharipov,** Hududiy boshqarmalar

T/r	Davlat dasturi va indikatorlar nomi	O'lchov birligi	2024-yil prognoz	Shundan, chorak bo'yicha				Indikatorlarga erishish uchun mas'ul vazirlikning tarkibiy bo'linmalari
				I	II	III	IV	
1.6.	Umumta'lim maktablaridagi o'qituvchilar orasida oliy toifali o'qituvchilar (jami o'qituvchilar soniga nisbatan)	foizda	**9,2**	9	9,2	9,2	9,2	Ta'lim sifati departamenti **(S. Radjabov)**
1.7.	Umumta'lim maktablaridagi o'qituvchilar orasida birinchi toifali o'qituvchilar (jami o'qituvchilar soniga nisbatan)	foizda	**20,7**	19,4	20,7	20,7	20,7	
1.8.	Umumta'lim maktablaridagi o'qituvchilar orasida toifaga ega o'qituvchilar	foizda	**62,0**	52,5	62,0	62,0	62,0	
2.	**Dastur nomi: Maktabgacha va maktab ta'limi tizimidagi muassasalarni sport jihozlari bilan ta'minlash dasturi**							
2.1.	Maktabgacha va maktab ta'limi tizimidagi muassasalarni sport jihozlari bilan ta'minlash	**mlrd so'm**	**62,1**	**-**	**-**	**31,05**	**62,1**	Soha infratuzilmasini rivojlantirish boshqarmasi **(Q.Oqilov, B.Ayubov),** "Ta'minot va logistika xizmati" DUK **(O'.Suyarov)**
	Yakuniy natija ko'rsatkichi							
2.2.	Zamonaviy birlamchi sport jihozlari to'plami bilan ta'minlangan maktablar ulushi (jami maktablar soniga nisbatan)	foizda	**100**			50	100	Soha infratuzilmasini rivojlantirish boshqarmasi **(Q.Oqilov, B.Ayubov),** "Ta'minot va logistika xizmati" DUK **(O'.Suyarov),** Hududiy boshqarmalar

T/r	Davlat dasturi va indikatorlar nomi	O‘lchov birligi	2024-yil prognoz	Shundan, chorak bo‘yicha				Indikatorlarga erishish uchun mas’ul vazirlikning tarkibiy bo‘linmalari
				I	II	III	IV	
	Bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) natija ko‘rsatkichi							
2.3.	Maktablarda yangilanadigan birlamchi sport jihozlari to‘plamlari soni	dona	**10 160**			5 080	10 160	Soha infratuzilmasini rivojlantirish boshqarmasi **(Q.Oqilov, B.Ayubov),** “Ta’minot va logistika xizmati” DUK **(O‘.Suyarov),** Hududiy boshqarmalar
3.	**Dastur nomi: Umumta’lim maktablarini milliy cholg‘u asboblari bilan ta’minlash dasturi**							
3.1	Umumta’lim maktablarini milliy cholg‘u asboblari bilan ta’minlash	**mlrd so‘m**	**60,0**			30,0	60,0	Soha infratuzilmasini rivojlantirish boshqarmasi **(Q.Oqilov, B.Ayubov),** “Ta’minot va logistika xizmati” DUK **(O‘.Suyarov),**
	Yakuniy natija ko‘rsatkichi							
3.2.	Milliy cholg‘u asboblari bilan ta’minlanadigan maktablar ulushi	foizda	**100**			50	100	Soha infratuzilmasini rivojlantirish boshqarmasi **(Q.Oqilov, B.Ayubov),** “Ta’minot va logistika xizmati” DUK **(O‘.Suyarov),** Hududiy boshqarmalar
	Bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) natija ko‘rsatkichi							

T/r	Davlat dasturi va indikatorlar nomi	O'lchov birligi	2024-yil prognoz	Shundan, chorak bo'yicha				Indikatorlarga erishish uchun mas'ul vazirlikning tarkibiy bo'linmalari
				I	II	III	IV	
3.3.	Maktablarga yetkaziladigan milliy cholg'u asboblar soni	dona	**10 160**			5 080	10 160	Soha infratuzilmasini rivojlantirish boshqarmasi **(Q.Oqilov, B.Ayubov)**, "Ta'minot va logistika xizmati" DUK **(O'.Suyarov)**, Hududiy boshqarmalar
4.	**Dastur nomi: Maktabgacha va umumta'lim tashkilotlarini kompyuter sinflari bilan ta'minlash dasturi**							
4.1.	Umumta'lim tashkilotlarini kompyuter sinflari bilan ta'minlash	**mlrd so'm**	**200,0**			100,0	100,0	AKTni joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi **(R.Musurmonov)**, "Ta'minot va logistika xizmati" DUK **(O'.Suyarov)**
	Yakuniy natija ko'rsatkichi							
4.2.	Zamonaviy kompyuter sinfi to'plami bilan ta'minlangan umumta'lim maktablari ulushi (jami umumta'lim maktablari soniga nisbatan)	foizda	**79**	70	70	75	79	AKTni joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi **(R.Musurmonov)**, Hududiy boshqarmalar
	Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi							

T/r	Davlat dasturi va indikatorlar nomi	O‘lchov birligi	2024-yil prognoz	Shundan, chorak bo‘yicha				Indikatorlarga erishish uchun mas’ul vazirlikning tarkibiy bo‘linmalari
				I	II	III	IV	
4.3.	Umumta’lim maktablariga yetkazib beriladigan kompyuter sinf to‘plamlari soni	to‘plam	**1 113**			500	613	AKTni joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi **(R.Musurmonov),** “Ta’minot va logistika xizmati” DUK **(O‘.Suyarov),** Hududiy boshqarmalar
5.	**Davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida tashkil qilinadigan nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish dasturi**							
5.1.	Davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida tashkil qilinadigan nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun	**mlrd so‘m**	**3 038,2**	650	1 350	2 150	3 038	Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi **(L.Berdiyeva)**, Maktabgacha ta’limi agentligi **(N.Muslitdinov)**
	Yakuniy natija ko‘rsatkichi							
5.2.	Jami 3-7 yoshdagi bolalarni nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari bilan qamrab olish darajasi	foizda	**29,3**	**26,5**	27,0	27,8	29,3	Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi **(L.Berdiyeva)**, Maktabgacha ta’limi agentligi **(N.Muslitdinov)**, Hududiy boshqarmalar
	Bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) natija ko‘rsatkichi							

T/r	Davlat dasturi va indikatorlar nomi	O'lchov birligi	2024-yil prognoz	Shundan, chorak bo'yicha				Indikatorlarga erishish uchun mas'ul vazirlikning tarkibiy bo'linmalari
				I	II	III	IV	
5.3.	Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni	ming dona	**26,3**	**25,3**	25,6	26,0	26,3	Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi **(L.Berdiyeva)**, Davlat xususiy sherikchilik asosidagi loyihalarni muvofiqlashtirish bo'limi **(F.Kushnazarov),** Maktabgacha ta'limi agentligi **(N.Muslitdinov)**, Hududiy boshqarmalar
5.4.	Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qatnaydigan bolalar soni	nafar	**129 600**	**126 000**	127 000	127 000	129 600	Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi **(L.Berdiyeva)**, Maktabgacha ta'limi agentligi **(N.Muslitdinov)**, Hududiy boshqarmalar

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2024-yil 5-yanvardagi
2-sonli buyrug‘iga
2-ILOVA

Budjet dasturi ijrosini ta’minlash bo‘yicha CHORA-TADBIRLAR REJASI

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
	Byudjet dasturining ijrosini ta’minlash va monitoring qilish			
	Xorijiy til *(ingliz, fransuz, nemis, ispan, italyan, arab, xitoy, yapon, koreys, turk)* bo‘yicha kamida B2 darajadagi xalqaro tan olingan yoki unga tenglashtirilgan milliy sertifikatga ega bo‘lgan xorijiy til o‘qituvchilari ulushini **35 foizga** yetkazish *(jami xorijiy til o‘qituvchilari soniga nisbatan)*	1. Umumta’lim maktablarining xalqaro tan olingan yoki unga tenglashtirilgan milliy sertifikatga ega bo‘lgan xorijiy til o‘qituvchilarini tahlil etish. 2. Xorijiy til o‘qituvchilarini xalqaro tan olingan yoki unga tenglashtirilgan milliy sertifikatlash bo‘yicha targ‘ibot ishlarini amalga oshirish. 3. Xorijiy til o‘qituvchilarini sertifikat olish sinovlariga jalb etish.	2024-yil fevral doimiy doimiy	Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish boshqarmasi **Sh.Temirova,** Hududiy boshqarmalar

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	Prezident maktablari bitiruvchilarining xalqaro A-LEVEL sertifikatidan yuqori (A-C) natijani qo'lga kiritish darajasini **70 foizga** yetkazish *(jami bitiruvchilar soniga nisbatan)*	1. Barcha Prezident maktablari bitiruvchilari A-Level darajasi imtihonlarini topshirish uchun ro'yxatdan o'tish; 2. A-Level darajasi sinov (MOCK) imtihonlarini o'tkazish 3. Belgilangan ko'rsatkichdan past natijaga ega bo'lgan o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlarni aniqlagan holda qo'shimcha (yakka tartibdagi) darslar tashkillashtirish.	2024-yil fevral 2024-yil aprel doimiy	Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi **X.Xusanov,** Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi **(A.Ubbiyev)**
	Prezident maktablari bitiruvchilarining xalqaro IELTS va SAT sertifikatlaridan (6,5 balldan) yuqori natijani qo'lga kiritish darajasini **82 foizga** yetkazish *(jami bitiruvchilar soniga nisbatan)*	1. Prezident maktablari o'quvchilarini 10-sinfdan boshlab Xalqaro IELTS/SAT imtihonlaridan o'tish uchun ro'yxatdan o'tkazishni yo'lga qo'yish; 2. Prezident maktablarida IELTS/SAT (akademik baholash testi) xalqaro sertifikati imtihonlarini tashkil etish va o'tkazish. 3. Bitiruvchilarning 82 foizini xalqaro IELTS/SAT sertifikati bilan qamrab olish.	2024-yil aprel 2024-yil may 2024-yil iyul	Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi **X.Xusanov,** Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi **A.Ubbiyev**

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	Maktabgacha ta'lim bilan **qamrov darajasini 76 foizga** yetkazish.	1. Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida **34 ta** davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qurish va **138 ta**sini rekonstruksiya qilish orqali qo'shimcha **10 460 ta yangi** quvvat yaratish. 2. **1 400 ta** davlat-xususiy sheriklik asosidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish.	Yil davomida	Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi **L.Berdiyeva** Maktabgacha ta'lim agentligi **N.Muslitdinov**
	Umumta'lim maktablaridagi o'qituvchilar orasida **oliy ma'lumotli** o'qituvchilarni **95 foizga** yetkazish (jami o'qituvchilar soniga nisbatan)	1.Umumta'lim maktablarida pedagog xodimlarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash. 2. Aniqlangan ehtiyoj asosida pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari bilan kadrlar uchrashuvlarini tashkil etish va uch tomonlama shartnomalar imzolash. 3. Umumta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus ma'lumotli o'qituvchilarni oliy ta'lim muassasalarining sirtqi bo'limlarida o'qishga targ'ibot qilish. 4. Oliy ta'lim muassasalarini tugatgan yosh mutaxassislarni umumta'lim maktablariga stajor-o'qituvchi lavozimiga ishga qabul qilish.	2024-yil mart 2024-yil aprel Yil davomida 2024-yil avgust-sentabr	Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi **I.Sharipov**
	Umumta'lim maktablaridagi o'qituvchilar orasida **oliy toifali** o'qituvchilar sonini **9,2 foizga** yetkazish (jami o'qituvchilar soniga nisbatan)	Joriy yilning yanvar-iyun oylarida **105 147 nafar** va avgust-dekabr oylarida **105 147 nafar**, jami **210 294 nafar** pedagog kadrlarni attestatsiyasini tashkil qilish va o'tkazish.	2024-yil yanvar-iyun avgust-dekabr	Ta'lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti **S. Radjabov**

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	Umumta'lim maktablaridagi o'qituvchilar orasida **birinchi toifali** o'qituvchilar sonini **20,7 foizga** yetkazish (jami o'qituvchilar soniga nisbatan)	Joriy yilning yanvar-iyun oylarida **105 147 nafar** va avgust-dekabr oylarida **105 147 nafar,** jami **210 294 nafar** pedagog kadrlarni attestatsiyasini tashkil qilish va o'tkazish.	2024-yil yanvar-iyun avgust-dekabr	Ta'lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti **S. Radjabov**
	Umumta'lim maktablaridagi o'qituvchilar orasida **toifaga ega** o'qituvchilar sonini **62,0 foizga yetkazish**	Joriy yilning yanvar-iyun oylarida **105 147 nafar** va avgust-dekabr oylarida **105 147 nafar,** jami **210 294 nafar** pedagog kadrlarni attestatsiyasini tashkil qilish va o'tkazish.	2024-yil yanvar-iyun avgust-dekabr	Ta'lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti **S. Radjabov**
	Maktabgacha va maktab ta'limi tizimidagi muassasalarni **62,1 mlrd so'm** mablag' hisobidan **10 160 dona** birlamchi **sport jihozlari** bilan ta'minlash, ta'minlangan maktablar ulushini **100 foizga** yetkazish (jami maktablar soniga nisbatan)	1. Umumta'lim maktablarini birlamchi sport jihozlari bilan ta'minlash uchun tegishli mablag'lami xarajatlar smetasida nazarda tutish. 2. Umumta'lim maktablarini birlamchi sport jihozlari bilan ta'minlash manzilli ro'yxatini shakllantirish va tasdiqlash. 3. Maktablarga beriladigan birlamchi sport jihozlarining texnik talablarini ishlab chiqish. 4. Birlamchi sport jihozlarining bozor narxlarini o'rganish. 5. Birlamchi sport jihozlarini xarid qilishni tashkil etish va tender (tanlov) savdolarini o'tkazish hamda aniqlangan g'oliblar bilan shartnomalar imzolash. 6. Imzolangan shartnomalarga muvofiq jihozlarni umumta'lim maktablariga yetkazib berish. 7. Yetkazib berilayotgan jihozlar bo'yicha monitoringni amalga oshirish.	2024-yil yanvar 2024-yil aprel 2024-yil iyun 2024-yil sentabr	Soha infratuzilmani rivojlantirish boshqarmasi **Q.Oqilov, B.Ayubov**

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	Umumta'lim maktablarini **60,0 mlrd so'm** mablag' hisobidan **cholg'u asboblar sonini 10 160 donaga** yetkazish, ta'minlanadigan maktablar ulushini 100 foizga yetkazish.	1. Umumta'lim maktablarini milliy cholg'u asboblari bilan ta'minlash uchun tegishli mablag'larni xarajatlar smetasida rejalashtirish. 2. Umumta'lim maktablarini milliy cholg'u asboblari bilan ta'minlash manzilli ro'yxatini tasdiqlash. 3. Maktablarga beriladigan milliy cholg'u asboblarining texnik talablarini ishlab chiqish. 4. Milliy cholg'u asboblarini bozor narxlarini o'rganish. 5. Milliy cholg'u asboblarini xarid qilishni tashkil etish va tender (tanlov) savdolarini o'tkazish hamda aniqlangan g'oliblar bilan shartnomalar imzolash. 6. Imzolangan shartnomalar muvofiq jihozlarni umumta'lim maktablariga yetkazib berish. 7. Yetkazib berilayotgan jihozlar bo'yicha monitoring yuritish.	2024-yil yanvar 2024-yil aprel 2024-yil iyun 2024-yil sentabr	Soha infratuzilmasini rivojlantirish boshqarmasi **Q.Oqilov, B.Ayubov**
	Maktabgacha va umumta'lim tashkilotlarini **200 mlrd so'm** mablag' hisobidan **kompyuter sinflari** bilan ta'minlash, **1 113 kompyuter sinf to'plamlarini** umumta'lim maktablariga yetkazib berish hamda **kompyuter sinfi to'plami** bilan ta'minlangan umumta'lim maktablari ulushini **79 foizga** yetkazish.	1. Kompyuter sinflarini xarid qilish yuzasidan ichki buyruq ishlab chiqish. 2. Umumta'lim maktablarini kompyuter sinflari bilan ta'minlash uchun 200 mlrd so'm mablag' ajratish. 3. Qonunchilikda belgilangan tartibda kompyuterni sotib olish va yetkazib berish bo'yicha tender o'tkazish 4. Kompyuterlarni umumta'lim maktablariga yetkazib berish	2024-yil yanvar 2024-yil may 2024-yil iyun 2024-yil sentabr	AKTni joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi **R.Musurmonov** Moliya-iqtisob departamenti **I.Siradjev** "Ta'minot va logistika xizmati" DUK **O'.Suyarov**

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
	3 038,2 mlrd so'm mablag' evaziga davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida **nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarini** tashkil etib, respublika bo'yicha **3-7 yoshdagi** bolalarning **29,3 foizini** nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan **qamrab olish,** ta'lim tashkilotlari soni **26,3 ming taga** yetkazish hamda **129 600 nafar** bolalarni davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha **ta'lim tashkilotlariga qamrab** olish.	1. Oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotini tashkil etish bo'yicha kelib tushgan elektron arizalarini ko'rib chiqish. 2. Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini yuritish uchun xususiy sherik bilan bitim imzolash.	Yil davomida	Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi **L.Berdiyeva** Maktabgacha ta'lim agentligi **N.Muslitdinov**

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2024-yil 5-yanvardagi
9-sonli buyrug‘iga
3-ILOVA

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, vazirliklar va idoralari tomonidan undiriladigan ayrim turdagi davlat bojlari, majburiy yig‘imlar, to‘lovlar, jarimalar va ajratmalar TAQSIMOTI

T/p	Mablag‘ yo‘naltirilishi	Foiz	Normativ-huquqiy hujjat*
Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash bo‘yicha arizani ko‘rib chiqish uchun to‘lanadigan yig‘imlar			
1.	O‘zbekiston Respublikasining respublika budjeti	20 foizi	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 80-son qarori
2.	Tegishli litsenziyalovchi organning hisobvarag‘i	58,25 foizi	
3.	Adliya vazirligining Davlat xizmatlarini rivojlantirish jamg‘armasi	10 foizi	
4.	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasining elektron hukumat va raqamli iqtisodiyotning idoralararo loyihalarini moliyalashtirish bo‘yicha maxsus hisobvarag‘i	11,75 foizi	

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik sohasidagi majburiy talablarni qisqartirish hamda litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 9-yanvardagi PF-8-son Farmoni ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik sohasidagi majburiy talablarni qisqartirish hamda litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 9-yanvardagi PF-8-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman**:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik sohasidagi majburiy talablarni qisqartirish hamda litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 9-yanvardagi PF-8-son Farmoni (keyingi o‘rinlarda - Farmon) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Farmon bilan quyidagilar:

litsenziyalash va xabardor qilish tartib-taomillari sohasidagi huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun yuridik shaxslarga qo‘llanilgan jarima summasi miqdorining 50 foizi o‘n besh kun ichida, 70 foizi o‘ttiz kun ichida ixtiyoriy ravishda to‘langanda, huquqbuzar jarimaning qolgan qismini to‘lashdan ozod etilishi belgilanganligi;

litsenziyalash jarayonida video aloqa vositalari yordamida talabgorlarning litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar talab va shartlariga muvofiqligini masofadan turib baholash tartibi joriy etilganligi;

tadbirkorlik subyektini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish yoki qayta ro‘yxatdan o‘tkazishda uning pochta manzili sifatida muassisning turar joyini ko‘rsatishga ruxsat berilganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan hamkor tashkilotlar bilan birgalikda 2024-yilda normativ-huquqiy hujjatlarning tartibga solish ta’sirini baholashdan o‘tkazish rejasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Ta’lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti (S.Radjabov):

2024-yil 1-martdan boshlab Yuridik boshqarma (X.Asrorov) bilan

birgalikda litsenziyalash va xabardor qilish tartib-taomillari sohasidagi huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun yuridik shaxslarga jarima qo‘llash to‘g‘risidagi buyruq loyihalarini ishlab chiqishda, huquqbuzar tomonidan jarima summasi miqdorining 50 foizi o‘n besh kun ichida, 70 foizi o‘ttiz kun ichida ixtiyoriy ravishda to‘langanda, huquqbuzar jarimaning qolgan qismini to‘lashdan ozod etilishini inobatga olsin;

ikki hafta muddatda AKTni joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (R.Musurmonov) bilan birgalikda nodavlat maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish faoliyatini litsenziyalash jarayonida video aloqa vositalari yordamida talabgorlarning litsenziya talab va shartlariga muvofiqligini masofadan turib baholash tartibini ishlab chiqish yuzasidan tegishli taklif kiritsin;

5. Ta’lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti (S.Radjabov) Yuridik boshqarma (X.Asrorov) bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga Farmondan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Adliya vazirligiga takliflar kiritsin.

6. Devonxona mudiri (D.Isxakova) o‘rnatilgan tartibda ushbu buyruqni tegishli tarkibiy bo‘linmalarga yetkazilishini ta’minlasin.

7. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazirning birinchi o‘rnbosari **U. Sharifxodjayev**

Toshkent sh.,
2024-yil 15-yanvar,
18-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023-yil 28-apreldagi 111-sonli buyrug‘iga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-79-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman**:

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta’lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 20-apreldagi qarori ijrosi haqida” 2023-yil 28-apreldagi 111-son buyrug‘iga ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

2. Respublika ta’lim markazi (A.Mamadaliyev):

Respublika ta’lim markazi shtatlar jadvali mazkur buyruqning ilovasi bilan tasdiqlangan lavozimlar nomi va shtat birliklari soniga muvofiq o‘rnatilgan tartibda o‘zgartirishlar kiritilishini hamda ro‘yxatdan o‘tkazilishini ta’minlash;

xodimlarning lavozim yo‘riqnomalarini qayta ko‘rib chiqish va tasdiqlash;

bir hafta muddatda o‘zlari qabul qilgan hujjatlarni mazkur buyruqqa muvofiqlashtirish vazifalari yuklatilsin.

3. Devonxona (D.Isxakova) ushbu buyruqni bir kun muddatda Respublika ta’lim markaziga yetkazilishini ta’minlasin.

4. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2024-yil 22-yanvar,
19-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining ayrim buyruqlariga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023-yil 25-dekabrdagi “Ichki audit va moliyaviy nazorat departamentining 2024-yil uchun ichki audit tadbirlari rejasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 571-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash hamda audit tadbirlarini samarali va sifatli tashkil etish maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining ayrim buyruqlariga ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

2. Devonxona (D.Isxakova) ushbu buyruqni o‘rnatilgan tartibda tegishli boshqarma va bo‘limlarga yetkazilishini ta’minlasin.

3. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2024-yil 22-yanvar,
21-son.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 22-yanvardagi
21-sonli buyrug‘iga
ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining ayrim buyruqlariga kiritilayotgan o‘zgartishlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023-yil 25-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi va uning tizimidagi budjet tashkilotlarida budjet mablag‘larini to‘g‘ri taqsimlanishi, jamlanma xarajatlar smetasi, shtatlar jadvali to‘g‘ri tuzilganligi yuzasidan audit tadbirlari o‘tkazish to‘g‘risida”gi 572-sonli buyrug‘ining 1-bandidagi “29-yanvargacha” degan so‘z “16-fevralgacha” degan so‘z bilan almashtirilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 15-yanvardagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi muassasa va tashkilotlarda budjet qonunchiligiga rioya etilishi yuzasidan audit tadbirlarini o‘tkazish to‘g‘risida”gi 17-sonli buyrug‘ining 1-bandidagi “2024-yil 29-yanvardan 23-fevralgacha” degan so‘zlar “2024-yil 19-fevraldan 15-martgacha” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlariga malaka toifalari berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 572-son qarori bilan tasdiqlangan “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida” nizomga asosan **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 572-son qarori bilan tasdiqlangan Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizomning 8-10-bandlarida attestatsiyadan o‘tkazilmasdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri malaka toifasi beriladigan pedagoglar ro‘yxati tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri (attestatsiyadan o‘tkazilmasdan) oliy malaka toifasi berilayotgan pedagog kadrlar ro‘yxati **1-ilovaga** muvofiq;

Maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri (attestatsiyadan o‘tkazilmasdan) birinchi malaka toifasi berilayotgan pedagog kadrlar ro‘yxati **2-ilovaga** muvofiq;

Maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri (attestatsiyadan o‘tkazilmasdan) ikkinchi malaka toifasi berilayotgan pedagog kadrlar ro‘yxati **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlarining to‘g‘ridan-to‘g‘ri (attestatsiyadan o‘tkazilmasdan) malaka toifasi berilayotgan pedagog kadrlar ro‘yxati Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari tomonidan “pedkadr.uzedu.uz” platformasi orqali yuborilgan buyurt-

malari asosida shakllantirilganligi inobatga olinsin.

4. Pedagog kadrlarga malaka toifalarini berish va sertifikatlash bo‘limi (U.Dusnazarov) Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (R.Musurmonov) bilan birgalikda:

to‘g‘ridan-to‘g‘ri berilayotgan malaka toifasi to‘g‘risidagi sertifikatlarni besh ish kuni muddatida QR-kod qo‘yilgan elektron ko‘rinishda shakllantirsin;

ilovaga muvofiq tasdiqlangan to‘g‘ridan-to‘g‘ri berilgan malaka toifasi to‘g‘risidagi QR-kod qo‘yilgan elektron shakldagi sertifikatlarni “pedkadr.uzedu.uz” platformasi orqali pedagoglarning shaxsiy kabinetiga yuborilishini ta’minlasin.

5. Mazkur buyruqning ijrosi nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2024-yil 5-fevral,
28-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

2024-2025-o‘quv yili uchun 8-9-sinf Jaxon tarixi, 9-sinf O‘zbekiston tarixi hamda 8-sinf Davlat va huquq asoslari fanidan darslik maketlarini yangidan yaratish ishlarini tashkillashtirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son, “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 8-maydagi PF-67-son Farmonlari, “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son, Vazirlar Mahkamasining “Respublika ta’lim markazi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 26-fevraldagi 108-son qarorlarida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. Respublika ta’lim markazi umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilari uchun 8-9-sinf Jahon tarixi, 9-sinf O‘zbekiston tarixi hamda 8-sinf Davlat va huquq asoslari fanidan darsliklarning (keyingi o’rinlarda - darsliklar deb yuritiladi) original maketlarini yangidan yaratsin va nashrga tayyorlasin.

2. Quyidagilar:

2024-2025-o‘quv yili uchun yangidan yaratiladigan 8-9-sinf Jahon tarixi, 9-sinf O‘zbekiston tarixi hamda 8-sinf Davlat va huquq asoslari fanidan darsliklarning original maketlari ro‘yxati va ularning texnik tafsilotlari 1-ilovaga muvofiq;

yangidan yaratilgan darsliklarning original maketlarini Respublika ta’lim markazidan qabul qilish bo‘yicha ishchi guruh (keyingi o‘rinlarda - ishchi guruh) tarkibi 2-ilovaga muvofiq;

yangidan yaratilgan darsliklarning original maketlarini topshirish-qabul qilish bo‘yicha dalolatnoma namunasi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Respublika ta’lim markazi (A.Mamadaliyev):

darsliklarning original maketlarni yangidan yaratish va nashrga tayyorlash bo‘yicha barcha tashkiliy ishlarni amaldagi qonunchilik asosida tashkil etish;

bir oy muddatda darsliklar maketini yangidan yaratish va nashrga tayyorlash xizmatlarining bozor narxlarini o‘rgangan holda, ishlab chiqilgan hisob-kitoblarni vazirlikning tegishli tarkibiy bo‘linmalariga taqdim etish;

yaratilgan har bir darslik maketiga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ta’lim muassasalari uchun matbaa mahsulotlari xavfsizligi talablarini belgilashning umumiy texnik reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 2022-yil 28-dekabrdagi 726-son qarorida belgilangan parametrlarga mos kelishi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi hamda O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining, shuningdek, darsliklarni dastlabki ekspertizadan o‘tkazish bo‘yicha ekspert guruhining ijobiy xulosalarini olish;

darsliklarni chop etadigan matbaa korxonalari tomonidan darsliklarda texnik yoki mazmunga doir xato va kamchiliklar aniqlangan taqdirda, Respublika ta’lim markazi tomonidan bepul tuzatish vazifalari yuklatilsin.

4. O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva), Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi (F.Jamuratova) vazirlik va Respublika ta’lim markazi o‘rtasida darsliklarning original maketlarini yangidan yaratish va nashrga tayyorlash xizmatlarini xarid qilish bo‘yicha o‘rnatilgan tartibda amaldagi qonunchilik doirasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma imzolanishini ta’minlasin hamda imzolangan shartnoma asosida Respublika ta’lim markaziga o‘rnatilgan tartibda to‘lovlarni amalga oshirsin.

Bunda, darsliklarning original maketlarini yaratish va nashrga tayyorlash bo‘yicha xarajatlar (shu jumladan, muallif gonorari, nashr va ekspertiza xarajatlari hamda boshqalar) Respublika Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan vazirlikka ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag‘lar doirasida qoplanishi inobatga olinsin.

6. Ishchi guruhga:

Respublika ta’lim markazi tomonidan yangidan yaratilgan, mazmunan va texnik jihatdan chop etishga tayyor holdagi darsliklarning original maketlarini tasdiqlangan nusxasi va elektron variantini o‘rnatilgan tartibda qabul qilib olish;

chop etishga tayyor holdagi darsliklarning original maketlarini topshirish- qabul qilish bo‘yicha dalolatnomalarni rasmiylashtirish vazifalari yuklatilsin.

7. O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva)ga qabul qilib olingan darslikning original maketlarini jamlash va saqlash vazifalari yuklatilsin.

8. Devonxona (D.Isxakova) ushbu buyruqni bir kun muddatda vazirlikning tegishli tarkibiy bo‘linmalariga hamda vazirlik huzuridagi Respublika ta’lim markaziga yetkazsin.

9. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklansin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2024-yil 6-fevral,
30-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2024-yil 6-fevraldagi
30-sonli buyrug‘iga
1-ILOVA

2024-2025-o‘quv yili uchun yangidan yaratiladigan 8-9-sinf Jahon tarixi, 9-sinf O‘zbekiston tarixi hamda 8-sinf Davlat va huquq asoslari fanidan darsliklarning original maketlari ro‘yxati va ularning texnik tafsilotlari

T/r	Darslik va o‘quv-metodik majmuaning nomi	Sinfi	Texnik tafsilotlari							
			Majmuaning nomi	Ta’lim tili	Original/ tarjima	Bichimi	Muqova rangi	Matn rangi	Kegli	Beti
A	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	Jahon tarixi	8	darslik	o‘zbek	Original	60x84 1/8	4+0	4+4	11	160
2	Jahon tarixi	9	darslik	o‘zbek	Original	60x84 1/8	4+0	4+4	11	180
3	O‘zbekiston tarixi	9	darslik	o‘zbek	Original	60x84 1/8	4+0	4+4	11	192
4	Davlat va huquq asoslari	8	darslik	o‘zbek	Original	60x84 1/8	4+0	4+4	11	128

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining
2024-yil 6-fevraldagi
30-sonli buyrug‘iga
2-ILOVA

Yangidan yaratilgan darsliklarning original maketlarini Respublika ta’lim markazidan qabul qilish bo‘yicha ishchi guruh
TARKIBI

T/r	F.I.SH.	Ish joyi va lavozimi
1.	U.Sharifxodjayev	Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining birinchi o‘rinbosari, ishchi guruh rahbari
2.	D.Norboyeva	O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi boshlig‘i, kotib
3.	A.O‘ktamov	O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, a’zo
4.	U.Xamutov	O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi bosh mutaxassisi, a’zo
5.	F.Urunov	O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi bosh mutaxassisi, a’zo
6.	Z.Zarifullayev	O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi yetakchi mutaxassisi, a’zo
7.	A.Tashkentov	O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi yetakchi mutaxassisi, a’zo

Izoh: Ishchi guruh a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklatilgan shaxslar kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining
2024-yil 6-fevraldagi
30-sonli buyrug‘iga
3-ILOVA

«**TASDIQLAYMAN**» Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining birinchi o‘rinbosari _____ _____ Imzo, F.I.SH.		«**TASDIQLAYMAN**» Respublika ta’lim markazi direktori _____ _____ Imzo, F.I.SH.

Yangidan yaratilgan darsliklarning original maketlarini topshirish-qabul qilish bo‘yicha
D A L O L A T N O M A *(namuna)*

Toshkent sh. “___” _____2024-y.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son, “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 8-maydagi PF-67-son Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevraldagi “Respublika ta’lim markazi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 108-son qarorida belgilangan topshiriqlarga muvofiq, **“TOPSHIRUVCHI”** – Respublika ta’lim markazi direktori _____va **“QABUL QILUVCHI”** – Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi vakillari _____, _____, _____, _____, _____, _____, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi va Respublika ta’lim markazi o‘rtasida _____ yil “___”_____da imzolangan _____-sonli shartnomaga asosan Respublika ta’lim markazi balansida bo‘lgan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarning original maketlarini Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi balansiga topshirish va qabul

qilish bo‘yicha ushbu dalolatnomani tuzdilar.

Respublika ta’lim markazi tomonidan tayyorlangan quyidagi:

T/r	Fan	Nomi (darslik, met. qo‘llanma va h.k.)	Sinfi	Ta’lim tili	Muallifi	Maket tayyorlan-gan yili	Elektron shakli (tayyorlangan dasturda)
1							
2							
3							
…							

darsliklar va o‘quv-metodik majmualarning original maketlari Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga o‘tkazilganligini tasdiqlaymiz.

Darsliklar va o‘quv-metodik majmualarning har biriga O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi, O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi hamda darsliklarni dastlabki ekspertizadan o‘tkazish bo‘yicha ekspert guruhining ijobiy xulosalarini olishga Respublika ta’lim markazi mas’ul hisoblanadi.

“TOPSHIRUVCHI”: **“QABUL QILUVCHI”:**

____F.I.SH. _____imzo _____F.I.SH._____imzo

_____F.I.SH. _____ imzo
_____F.I.SH. _____ imzo

_____F.I.SH. _____ imzo
_____F.I.SH. _____ imzo

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘qituvchilarning ilg‘or tajribasi va faoliyati davomida qo‘llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida

Maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi o‘qituvchilaming ilg‘or ish tajribasi hamda faoliyati davomida qo‘llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish ishlarini takomillashtirish maqsadida **buyuraman**:

1. Quyidagilar:

o‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribasini ommalashtirish tartibi 1-ilovaga muvofiq;

o‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribasini ommalashtirish uchun tayyorlangan metodik ishiga qo‘yilgan talablar va baholash mezoni 2-ilovaga muvofiq;

o‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribasini ommalashtirish bo‘yicha fanlar ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq;

o‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribasi ommalashtirilganligi to‘g‘risidagi sertifikat namunasi 4-ilovaga muvofiq;

o‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribasi ommalashtirilganligi to‘g‘risida sertifikatlar berish bosqichlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Respublika ta’lim markaziga:

bir oy muddatda amaldagi **ommalashtirish.uz** platformasini takomillashtirilgan tartibi bo‘yicha Respublika ta’lim markazining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan qayta ishlab chiqish va foydalanishga topshirish;

joriy yilning mart oyidan takomillashtirilgan tartib asosida **ommalashtirish.uz** platformasi orqali metodik ishlarni qabul qilish jarayonlarini tashkil etish;

ommalashtirishning takomillashtirilgan tartibi hamda ommalashtirish.uz platformasidan foydalanish bo‘yicha pedagoglarga targ‘ibot-tashviqot tadbirlarini va o‘quv-seminarlarni tashkil etish vazifalari yuklatilsin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish

milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limida faoliyat olib borayotgan soha mutaxassislari bilan hamkorlikda ommalashtirishning takomillashtirilgan tartibini barcha pedagog xodimlarga keng tushuntirish berish bo‘yicha tegishli choralar ko‘rsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2022-yil 25-avgustdagi “O‘qituvchilarning ilg‘or tajribasi va faoliyati davomida qo‘llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish tartibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 279-sonli buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Axborot xizmat (D.Sobirova) maktabgacha va maktab ta’limi tizimida ommalashtirishning takomillashtirilgan tartibi joriy etilishini vazirlikning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida keng yoritib borilishini ta’minlasin.

6. Devonxona (H.Raximbayeva) ushbu buyruqni bir kun muddatda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlari hamda vazirlik tasarrufidagi tashkilotlarga yetkazsin.

7. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2024-yil 7-fevral,
32-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining
2024-yil 7-fevraldagi
32-sonli buyrug‘iga
1-ILOVA

O‘qituvchilarning ilg‘or tajribasini ommalashtirish TARTIBI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Tartib maktabgacha va maktab ta’limi tizimida o‘qituvchilarning ilg‘or tajribasi va faoliyati davomida qo‘llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish (keyingi o‘rinlarda - ommalashtirish tartibi) hamda maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi tajribali pedagog kadrlar, jumladan, fan o‘qituvchilarining ilg‘or ish tajribalarini o‘rganish va ommalashtirish tartibini belgilaydi.

2. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi va Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi (keyingi o‘rinlarda - Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi) o‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribalarini o‘rganish va ularni ommalashtirish bo‘yicha **muvofiqlashtiruvchi ishchi organ** hisoblanadi.

3. Mazkur ommalashtirish tartibi umumiy o‘rta ta’lim maktabi, Prezident, ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari, maxsus maktab-internatlari, mehrli maktab o‘qituvchilariga tatbiq qilinadi va **ixtiyoriy hisoblanadi**.

2-bob. Ommalashtirish maqsadi

4. Umumiy o‘rta ta’lim tizimiga o‘quv jarayonini samarali tashkil etish va o‘quv jarayoniga ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg‘or tajribalar, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda maktabgacha va maktab ta’limi tizimi xodimlari o‘rtasida o‘zaro tajriba almashish ishlarini yo‘lga qo‘yishdan iborat.

3-bob. Ommalashtirish bosqichlari

5. Ommalashtirish uchun tavsiya etilgan ilg‘or ish tajribalar (keyingi o‘rinlarda - metodik ish) metodik qo‘llanma yoki metodik tavsiya ko‘rinishda bo‘lishi lozim.

Metodik qo‘llanma yoki metodik tavsiya ko‘rinishida bo‘lmagan hamda o‘tgan yillar davomida ommalashtirilgan metodik ishlar o‘rganilmaydi.

6. Metodik ishlar quyidagi bosqichlarda ommalashtiriladi:
maktab miqyosida;
tuman (shahar) miqyosida;
viloyat miqyosida;
respublika miqyosida.

7. Maktab miqyosida ommalashtirish:

Umumta'lim muassasasining fan o'qituvchisi (keyingi o'rinlarda - talabgor) tomonidan ilg'or tajribalar asosida ishlab chiqilgan metodik ish yo'nalishlar bo'yicha maktabning **Metodbirlashmasi tomonidan** muhokama qilinadi hamda ilg'or ish tajribaga ega deb topilgan taqdirda maktab miqyosida ommalashtirish uchun maktabning **Pedagogik kengashiga tavsiya** etiladi.

Metodbirlashma tavsiyasi asosida Pedagogik kengashda talabgorning **metodik ishi** mazkur buyruq bilan tasdiqlangan **metodik ishga qo'yilgan talablar** hamda **baholash mezoniga muvofiq** ishlab chiqilganligi o'rganib chiqiladi hamda maktab miqyosida ommalashtirish yoki ommalashtirmaslik bo'yicha **Pedagogik kengash** qaror qabul qiladi.

Agar talabgorning metodik ishiga ijobiy xulosa berilib, ommalashtirishga loyiq deb hisoblansa, Pedagogik kengash qarori bilan maktab miqyosida ommalashtiriladi va ommalashtirish.uz platformasiga joylashtirilib keyingi bosqichlarga yuboriladi.

Bunda, quyidagi hujjatlar talabgor tomonidan ommalashtirsh.uz platformasiga joylashtiriladi:

metodik ishiga ijobiy xulosa berilib, ta'lim muassasasi miqyosida ommalashtirilganligi to'g'risida Pedagogik kengash qarorining **elektron (pdf) nusxasi**;

ommalashtirish uchun tavsiya etiladigan metodik ishi (metodik qo'llanma yoki metodik tavsiya)ning **elektron (pdf) nusxasi**;

o'zi to'g'risida **ma'lumotnoma** (obyektivka) va mutaxassisligi bo'yicha **diplom nusxasi**.

8. Tuman (shahar) va viloyat (Toshkent shahar, Qoraqalpog'iston Respublikasi) miqyosida ommalashtirish:

ommalashtirish.uz platformasi orqali yuborilgan metodik ish Metodik xizmat ko'rsatish bo'limining tegishli fanlar bo'yicha **O'quv metodik kengashi tomonidan** o'rganib chiqiladi.

Talabgorning metodik ishi maksimal **80 ball** bilan baholanadi. Talabgor tomonidan tayyorlangan metodik ish mazkur buyruq bilan tasdiqlangan **metodik ishga qo'yilgan talablar** hamda **baholash mezoniga** muvofiq baholanadi.

Bunda, **50-65 ball** bilan baholangan metodik ishlar tuman (shahar) miqyosida, **66-80 ball** bilan baholangan metodik ishlar viloyat (Toshkent shahar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi) miqyosida ommalashtirilgan deb hisoblanadi va sertifikat olish uchun **ommalashtirish.uz platformasi orqali** Respublika ta’lim markaziga yuboriladi.

Shundan **75-80 ball** bilan baholangan metodik ish respublika miqyosida ommalashtirish uchun tavsiya etiladi.

Qoraqalpoq tilidagi metodik ishlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi hamda Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazining Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi bilan hamkorlikda o‘rganib chiqilib, **O‘quv metodik kengash** qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markaziga ommalashtirish uchun tavsiya etiladi.

Bosqichlar uchun talab etiladigan ballarni to‘play olmagan talabgorlarning metodik ishi asoslantirilib, **ommalashtirish.uz platformasiga joylashtiriladi**.

Tuman (shahar), viloyat (Toshkent shahar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi) miqyosida ommalashtirish to‘g‘risida Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limining O‘quv metodik kengashi qarori **har yili 15-mayga qadar ommalashtirish.uz** platformasiga joylashtirilishi lozim.

O‘quv metodik kengash qaroridan norozi bo‘lgan talabgorlar **uch ish kuni ichida** Apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilishlari mumkin.

Qaror qabul qilishda quyidagi xulosalardan foydalanish mumkin:

“Talabgorning **metodik ishi maktab miqyosida ommalashtirilganligi** inobatga olinsin va **qayta takomillashtirish uchun talabgorga yuborilsin**”;

“Talabgorning **metodik ishi tuman (shahar)** miqyosida ommalashtirilsin”;

“Talabgorning **metodik ishi viloyat (Toshkent shahar, Qoraqalpog‘iston**

Respublikasi) miqyosida ommalashtirilsin”;

“Talabgorning **metodik ishi viloyat (Toshkent shahar, Qoraqalpog‘iston**

Respublikasi) miqyosida ommalashtirilib, respublika miqyosida ommalashtirishga tavsiya etilsin”.

Ommalashtirish.uz platformasi orqali tuman (shahar), viloyat (Toshkent shahar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi) miqyosida ommalashtirish uchun yuborilgan ishlar Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘li-

mining O‘quv metodik kengash qaroriga muvofiq Respublika ta’lim markazi tomonidan sertifikat beriladi.

9. Respublika miqyosida ommalashtirish:

Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limining tavsiyasi **asosida respublika miqyosida ommalashtirish uchun yuborilgan metodik ishlar** Respublika ta’lim markazining **Ilmiy-metodik kengashida** o‘rganiladi.

Bunda, talabgor tomonidan **metodik ishi yuzasidan taqdimot qilinib,** maksimal **20 ball** bilan baholanadi.

Taqdimot uchun baholash mezoni Respublika ta’lim markazi tomonidan ishlab chiqilib, respublika bosqichi boshlanishidan **bir oy oldin** ommalashtirish.uz platformasiga joylashtiriladi.

Respublika bosqichida umumiy **86-100 ball** bilan baholangan **metodik ish** Ilmiy-metodik kengash tomonidan respublika miqyosida ommalashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilinadi.

Respublika miqyosida ommalashtirish to‘g‘risida Respublika ta’lim markazining Ilmiy-metodik kengash qarori **har yili 30-mayga qadar ommalashtirish.uz** platformasiga joylashtirilishi lozim.

Ilmiy-metodik kengash qaroridan norozi bo‘lgan talabgorlar **uch ish kuni ichida** Apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilishlari mumkin.

4-bob. Ommalashtirish bo‘yicha berilgan sertifikatlarning amal qilish muddatlari

Tuman (shahar), viloyat (Toshkent shahar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi) va respublika miqyosida ommalashtirilganligi to‘g‘risidagi sertifikat berilgan **kundan boshlab uch yilga qadar**;

maktab miqyosida ommalashtirilgan **metodik ish** uchun sertifikat berilmaydi va maktab miqyosida ommalashtirilganligi to‘g‘risida **Pedagogik kengash qarori** asos hisoblanib, **uch yilga amal qiladi**.

Sertifikatlar faqat Respublika ta’lim markazi tomonidan beriladi hamda **ommalashtirish.uz platformasi** orqali talabgorning shaxsiy kabinetiga yuboriladi.

5-bob. Apellyatsiya komissiyasi

10. Tuman (shahar), viloyat bosqichidagi apellyatsiya komissiyasi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limining O‘quv metodik kengash tarkibiga kirmagan **uch nafargacha** tegishliligi bo‘yicha yuqori malakali fan mutaxassislaridan iborat tarkibda tuziladi.

Respublika bosqichidagi apellyatsiya komissiyasi Respublika ta’lim markazining Ilmiy-metodik kengashi tarkibiga kirmagan **uch nafargacha** tegishliligi bo‘yicha yuqori malakali fan mutaxassislari-

dan iborat tarkibda tuziladi.

Tuman (shahar), viloyat va respublika bosqichlaridagi apellyatsiya komissiya tarkibiga boshqa muassasa va tashkilotlardan mutaxassislar jalb etish mumkin.

11. Apellyatsiya shikoyatini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi:

O‘quv metodik kengash yoki Ilmiy-metodik kengash qarorini o‘zgarishsiz qoldirish va apellyatsiya shikoyati qondirilishini rad etish;

O‘quv metodik kengash yoki Ilmiy-metodik kengash qarorini o‘zgartirish va apellyatsiya shikoyatini qondirish.

Bunda, O‘quv metodik kengash yoki Ilmiy-metodik kengash qarorini o‘zgarishsiz qoldirish va apellyatsiya shikoyati qanoatlantirilishini rad etish to‘g‘risidagi qaror quyidagi hollarda qabul qilinadi:

apellyatsiya mazkur tartib talablari buzilgan holda taqdim etilgan bo‘lsa;

metodik ishiga qo‘yilgan ballar baholash mezonlariga muvofiq to‘g‘ri qo‘yilgan deb topilsa.

O‘quv metodik kengash yoki Ilmiy-metodik kengash qarorini o‘zgartirish va apellyatsiya shikoyatini qondirish to‘g‘risidagi qaror metodik ishiga qo‘yilgan ballar baholash mezonlariga zid ravishda qo‘yilgan deb topilsa qabul qilinadi.

12. Takroriy apellyatsiyaga yo‘l qo‘yilmaydi.

13. Talabgor Apellyatsiya komissiyasi qarori ustidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda sudga yoki yuqori turuvchi tashkilotlarga shikoyat qilishi mumkin.

6-bob. Yakuniy qoidalar

14. Ommalashtirishga tavsiya etilmagan metodik ishga Ilmiy-metodik kengashning yakuniy qarorida qayd etilgan izohdan boshqa qo‘shimcha xulosalar berilmaydi.

15. Respublika miqyosida ommalashtirilgan barcha metodik ishlardan doimiy ravishda o‘qituvchilar foydalanishlari uchun metodik ishlar **ommalashtirish.uz platformasiga** joylashtiriladi.

16. Mazkur Nizom vazirlik tomonidan o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin hamda Nizom talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2024-yil 7-fevraldagi
32-sonli buyrug‘iga
2-ILOVA

O‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribasi va faoliyati davomida qo‘llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish uchun tayyorlangan metodik ishga qo‘yilgan talablar va baholash mezoni

Metodik qo‘llanma yoki Metodik tavsiyaga qo‘yilgan talablar

I. Metodik qo‘llanma yoki Metodik tavsiyaning tuzilishi

I.1 Muqova (titul)
I.2 Sarlavha
I.3 Annotatsiya
I.4 Tarkib
I.5 Mundarija
I.6 Kirish
I.7 Asosiy qism
I.8 Xulosa
I.9 Ilovalar (qo‘shimcha materiallar, diagrammalar, jadvallar, chizmalar, testlar, xaritalar - agar bor bo‘lsa.)

II. Mazmunga qo‘yilgan talablar

II.1 Amaldagi fan dasturlariga mos ravishda yoki dasturlarni takomillashtirish uchun ishlab chiqilganligi;

II.2 Metodik qo‘llanma yoki Metodik tavsiyada “Qanday o‘qitish kerak?” degan savol ochib berilishi, shuningdek, topshiriq namunalari, shakllar, diagrammalar, sxemalar, jadvallar, xaritalar va shunga o‘xshash yordamchi elementlardan foydalanish bo‘yicha tushuntirishlarning mavjudligi;

II.3 Taklif qilinayotgan metodikaning yangiligi;

II.4 Fan, kasb, mavzularo integratsiyaning mavjudligi.

II.5 Muayyan pedagogik muammoni hal qilish, o‘quv dasturining ayrim bo‘lim, bob va mavzularni o‘rganishga qaratilganligi;

II.6 Tanlangan mavzuning dolzarb bo‘lishi, o‘qituvchilarga mavzu yuzasidan aniq ma’lumot berilishi, aniq metodik maqsadga yo‘naltirilganligi;

II.7 O‘quvchilarga bilim, ko‘nikma, munosabat, qadriyatlar va xulq-atvorni o‘zlashtirishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan vositalar va

materiallar bilan bir qatorda strategiyalar, o‘qitish usullari va metodlari, o‘qituvchi tomonidan olib boriladigan dastlabki tayyorgarliklarning keltirilishi;

II.8 O‘quv sohasi, mavzusi va o‘quvchilarni tadqiqotga, kundalik hayotda uchragan turli muammolarga yechim topishga yo‘naltiradigan loyihalar va shunga o‘xshash amaliy tadqiqotlarning mavjudligi;

II.9 O‘quvchilarga qaratilgan amaliy topshiriqlarni yaratish usullari, o‘yinlar, tanlovlar, viktorinalar uchun namunali savollar, ochiq tadbirlar, sayohat rejalarini tashkil etish usullarining mavjudligi;

II.10 Zarur tushunchalar lug‘ati kiritilganligi;

II.11 Material tizimli va tushunarli bayon qilinganligi.

III. Shakliy-texnik talablar:

3.1 Metodik qo‘llanmaning eng kam hajmi 24 bet, Metodik tavsiyaning eng kam hajmi 10 betdan iborat bo‘lishi kerak:

annotatsiya 4-8 gapdan oshmasligi;

kalit so‘zlar (indeksatsiya uchun) 6-8 so‘zdan iborat bo‘lishi;

“Times new roman” shrifti, “Microsoft word” redaktoridan foydalanish;

betlarni avtomatik tarzda belgilash;

jadvallar “microcoft word”ning “tablitsa” funksiyasi orqali kiritish;

matn shrifti 12-14, qatorlar oralig‘i 1 intervalda bo‘lishi;

ilovalar hajmi cheklanmagan, lekin ular matnga mos kelishi (matnda ularga havolalar berilishi);

matnda foydalanilgan adabiyotlarga havolalar kvadrat qavs ichida berilishi, foydalanilgan manbalar ro‘yxati kamida 5 nomdan iborat bo‘lishi kerak. Agar qo‘llanma nazariy havolalarni talab qilmasa, faqat amaliy bo‘lsa, unda foydalanilgan manbalar ro‘yxatini taqdim qilmasa bo‘ladi.

bo‘limlar soni va hajmi cheklanmagan.

IV. Til, uslub, ma’no va ifodaga qo‘yilgan talablar

o‘zbek tilidan to‘g‘ri foydalanish; tilning ifoda boyligi, ma’no nozikliklariga e’tibor berish;

tildan foydalanishda til va madaniy meros xususiyatlariga ega bo‘lgan adabiy mahsulotlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni buzmaydigan noziklikka rioya qilish;

hali tilga kirib ulgurmagan, o‘zbekcha ekvivalenti bo‘lmagan xorijiy so‘zlarga izoh berish;

jargon, haqorat, kamsitish va h.k. bayonotlar kiritilmasligi;

o‘quvchilarning sinf darajalariga mos til va ularning so‘z boyligini boyitish;

tarkibda semantik yoki strukturaviy ifoda buzilishi bo‘lmasligi;

tarkibda hech qanday imloviy, tinish va uslubiy xato bo‘lmasligi;

asosiy va amaldagi imlo qoidalariga muvofiq bo‘lishi;

ifoda tamoyillari (ravonlik, soddalik, ravshanlik, oddiylik) keraksiz ritorika va iboralardan uzoqda va tushunarli bo‘lishi;

ifoda keraksiz so‘zlardan, bir xil ma’noli iboralardan va so‘z takrorlaridan xoli bo‘lishi;

matnni tashkil etuvchi birliklar (gap, paragraf va boshqalar) o‘rtasidagi ma’no va ifodaning yaxlitligi ta’minlanishi kerak.

V. Mualliflik huquqi va plagiat

Barcha yozma va vizual tarkibdagi iqtiboslar va havolalar mualliflik huquqi qonunchiligiga muvofiq qilinishi kerak. Plagiatni aniqlash dasturining originallik belgilangan standart me’yorlarga to‘g‘ri kelmagan ish nollashtiriladi.

VI. Titul sarlavha sahifasi tuzilishi

Yuqori qismida ushbu hujjat topshirilgan muassasaning nomi ko‘rsatilgan bo‘lishi;

sarlavhaning nomi varaqning o‘rtasida katta harflarda va bo‘yoqdor shaklda yozilishi;

sarlavhadan biroz pastroqda, muallif haqida quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatilishi kerak: ish joyi, lavozimi va familiyasi, ismi, otasining ismi.

Eng pastki qismida (markazda) shahar va yil ko‘rsatilishi kerak, ya’ni ushbu qo‘llanma qayerda va qachon yaratilganligini anglatadi.

NAMUNA:

QASHQADARYO VILOYATI YAKKABOG‘ TUMANI 68-SONLI UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABI FILOLOGIK FANLARNI MASOFAVIY O‘QITISHDA SUN’IY INTELLEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Lutfillayev Saidaslon Nurmuhammad o‘g‘li
68-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining rus tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi

Qarshi -2024

Metodik qo‘llanma yoki Metodik tavsiyani baholash mezoni

T/r	Mezon	Jami ball
	Shakliy-texnik talablar uchun qo‘yiladigan ballar:	
1.	Muqova, sarlavha, annotatsiya, tarkib, mundarija borligi uchun -**1 ball** (bunda, sanab o‘tilgan metodik tavsiya shakliy tuzilishining bitta elementi uchramasa - 0 ball); Kirish, asosiy qism, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, ilovalar (qo‘shimcha materiallar, diagrammalar, jadvallar, chizmalar, testlar, xaritalar - agar bor bo‘lsa) borligi uchun **3 ball** (qisman mos kelsa - 1-2 ball, mos bo‘lmasa - 0 ball)	**4**
2.	Metodik qo‘llanmaning eng kam hajmi 24 bet, Metodik tavsiyaning eng kam hajmi 10 bet, matn shrifti 12-14, qatorlar oralig‘i 1 (bir) intervalda berilgani uchun **2 ball** (talab qilinganlarning bittasi uchramasa - 1 ball, barchasi uchramasa- 0 ball);	**2**
	Qo‘llanmaning mazmuniga, savodxonligiga qo‘yiladigan ballar:	
3.	Amaldagi dastur va o‘quv rejalarga mos ravishda ishlab chiqilganligi: to‘liq mos kelsa - **4 ball** (qisman mos kelsa-2-3 ball, mos kelmasa — 0 ball);	**4**
4.	Taklif qilinayotgan metodik ishda yangilikning borligi uchun **3 ball** (yo‘qligi uchun - 0 ball); Yangilikning o‘ziga xos afzalliklari asoslanganligi uchun **3 ball** (qisman asoslanganligi uchun 1-2 ball qo‘yiladi; asoslanmasa — 0 ball); Ta’lim va tarbiyaning yangi shakllari, usullari yoki vositalarini ishlab chiqqanligi uchun **6 ball** (qisman ishlab chiqilgan bo‘lsa - 3 ball, ishlab chiqilmagan bo‘lsa - 0 ball).	**12**

5.	Taklif etilayotgan metod, texnologiya o‘quvchi yoshi va psixologiyasiga mosligi uchun — **2 ball** (qisman mos kelsa - 1 ball, mos bo‘lmasa - 0 ball)	**2**
6.	Taklif qilinayotgan usul va topshiriqlarning amaliyotda qo‘llashga qulayligi uchun — **2 ball (**qisman mos kelsa - 1 ball, mos bo‘lmasa - 0 ball)	**2**
7.	Topshiriqlar, mashqlar ketma-ketligi mantiqiy tuzilgan, bir-birini to‘ldirib, mustahkamlab borishi nazarda tutilganligi uchun - **2 ball (**qisman mos kelsa - 1 ball, mos bo‘lmasa - 0 ball)	**2**
8.	Integratsiyaning mavjudligi uchun: - fanlararo, mavzulararo - **2 ball**; - kasblararo - **2 ball.**	**4**
9.	- Muayyan pedagogik yoki metodik muammoni aniq tavsiflagani uchun- **2 ball**;	**6**
	- Muayyan pedagogik yoki metodik muammoni hal qilishga qaratilganligi uchun -**4 ball (**qisman mos kelsa - 2 ball, mos bo‘lmasa - 0 ball).	
10.	Material tizimli va tushunarli bayon qilinganligi uchun- **2 ball (**qisman mos kelsa - 1 ball, mos bo‘lmasa - 0 ball)	**2**
11.	- Metodik qo‘llanma yoki Metodik tavsiyada “Qanday o‘qitish kerak?” degan savol ochib berilganligi uchun- **4 ball (**qisman mos kelsa - 2 ball, mos bo‘lmasa - 0 ball); - Taklif qilinayotgan metodikani kimlarga, qachon, qaysi o‘rinlarda foydalanish bo‘yicha tushuntirishlarning mavjudligi uchun - **2 ball (**qisman mos kelsa - 1 ball, mos bo‘lmasa - 0 ball)**.**	**6**
12.	Taklif qilinayotgan metodika orqali erishish mumkin bo‘lgan aniq natijalar ko‘rsatilganligi uchun- **2 ball (**qisman mos kelsa - 1 ball, mos bo‘lmasa - 0 ball).	**2**
13.	Tavsiya etilayotgan metodik ishni amalda qo‘llash uchun o‘qituvchi tomonidan olib boriladigan dastlabki tayyorgarliklarning keltirilganligi uchun - **2 ball.**	**2**
14.	Taklif etilayotgan usul va topshiriqlar asosida bajarilgan ishlarni qanday baholash kerakligi aniq tavsiflangani uchun - **4 ball** (qisman mos kelsa - 2 ball, mos bo‘lmasa - 0 ball).	**4**

15.	Tavsiya qilinayotgan metodik ishda o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga oid yondashuvning mavjudligi uchun: - **4 K** (kollaboratsiya - jamoa bo'lib ishlash qobiliyatini shakllantirish; kommunikativlik - muloqot qilish ko'nikmasini rivojlantirish; kreativ fikrlash - o'z maqsadiga erishish yo'lida yangiliklarga qo'l urish, yangi g'oyalar ishlab chiqish va muammolarni hal qilish; tanqidiy fikrlash - o'z mustaqil fikriga ega bo'lish va uni ifoda etish, masalaga tanqidiy yondashish) - **4 ball** (bunda har bir 4K elementi mavjudligi uchun - 1 balldan hisoblanadi); - AKT ko'nikmalari va mediasavodxonlik - **2 ball** (qisman mos kelsa - 1 ball, mos bo'lmasa - 0 ball); - Tadqiqotchilik ko'nikmalari - **2 ball** (qisman bo'lsa - 1 ball, bo'lmasa - 0 ball).	**8**
16.	Hali o'zbek tiliga kirib ulgurmagan so'zlarga izoh berilganligi uchun- **2 ball**; o'zbekcha ekvivalenti bo'lmagan xorijiy so'zlarga izoh berilganligi uchun - **2 ball.**	**4**
17.	Ifoda tamoyillariga (ravonlik, soddalik, oddiylik) asoslanganligi uchun -	**2**

	2ball (qisman mos kelsa - 1 ball, mos bo'lmasa - 0 ball).	
18.	Matn ilmiy va rasmiy uslubda ekanligi uchun **-2 ball** (qisman mos kelsa - 1 ball, mos bo'lmasa - 0 ball).	**2**
19.	Matn keraksiz so'zlardan, bir xil ma'noli iboralardan va so'z takrorlaridan xoli ekanligi uchun **-2 ball** (qisman mos kelsa - 1 ball, mos bo'lmasa - 0 ball).	**2**
20.	Matn asosiy va amaldagi imlo qoidalariga muvofiqligi uchun	**2**
21.	Imloviy xatolik uchun: - 1-3 tagacha xato **— 2 ball**; - 4 va undan ortiq xato - **0 ball**. Tinish xato uchun: - 1-3 tagacha xato bo'lsa —**2 ball**; - 4 va undan ortiq xatolar uchun - **0 ball**; Uslubiy xato uchun: - 1-2 tagacha xato bo'lsa —**2 ball**; - 3 va undan ortiq xatolar uchun - **0 ball**;	**6**
Jami		**80 ball**

O‘qituvchilarning ilg‘or tajribasini ommalashtirish bo‘yicha fanlar RO‘YXATI

T/r	Fanlar ro‘yxati
1	Boshlang‘ich ta’lim (1-4-sinf)
2	Ona tili va adabiyoti (o‘zbek)
3	Ona tili va adabiyoti (qozoq)
4	Ona tili va adabiyoti (turkman)
5	Ona tili va adabiyoti (tojik)
6	Ona tili va adabiyoti (qirg‘iz)
7	Ona tili va adabiyoti (qoraqalpoq)
8	Ona tili va adabiyoti (rus)
9	Rus tili (milliy sinf)
10	Chet tili
11	Tarix
12	Davlat va huquq asoslari
13	Tarbiya
14	Matematika
15	Informatika va axborot texnologiyalari
16	Fizika va astronomiya
17	Kimyo
18	Biologiya
19	Geografiya
20	Tabiiy fan
21	Iqtisodiy bilim asoslari (tadbirkorlik asoslari)
22	Musiqa madaniyati
23	Tasviriy san’at va chizmachilik
24	Texnologiya
25	Jismoniy tarbiya
26	Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik
27	O‘zbek tili (davlat tili)
28	Qoraqalpoq tili

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2024-yil 7 -fevraldagi
32-sonli buyrug‘iga
4-ILOVA

O‘qituvchilarning ilg‘or tajribasining ommalashtirilganligi bo‘yicha sertifikat namunasi

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

Respublika Ta'lim Markazi

Ilg‘or ish tajriba (metodik ish) ommalashtirilganligi to‘g‘risida
SERTIFIKAT

_____
(hudud nomi)

_____
(tuman, shahar nomi)

_____
(tashkilot, muassasa nomi)

_____
(lavozimi)

_____ ning
(ismi sharifi)

ish tajribasi (metodik ish)_____ miqyosida
(ommalashtirish darajasi: tuman, shahar, viloyat, respublika)

OMMALASHTIRILDI.

Asos: Respublika ta’lim markazi huzuridagi ilmiy-metodik kengashining
20_yil “ ___”-_____ dagi “____ ” -sonli qarori.

Ushbu sertifikatning amal qilish muddati - 3 yil.

Respublika ta’lim
markazi direktori _____ _____
(imzo, muhr) (ismi sharifi)

Sana: _____ Qayd raqami: _____

O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining
2024-yil 7-fevraldagi
32-sonli buyrug'iga
5-ILOVA

O'qituvchilarning ilg'or ish tajribasini ommalashtirish.uz platformasi orqali qabul qilish, o'rganib chiqish hamda bosqichlar bo'yicha ommalashtirilganligi to'g'risida sertifikatlar berish muddatlari SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Muddat
1-bosqich	Ta'lim tashkiloti (maktab)	Metodik ishni Pedagogik kengashga tavsiya etadi. Pedagogik kengash qarori bilan maktab miqyosida ommalashtiradi va keyingi bosqichlarga tavsiya etadi.	Har o'quv yili boshidan 1-martga qadar Har yili 20-martga qadar
2-bosqich	Viloyat (Toshkent shahar, Qoraqalpog'iston Respublikasi)	Talabgorlarning metodik ishini o'rganib chiqadi va keyingi bosqichga tavsiya etadi.	Har yili 20-mayga qadar
3-bosqich	Respublika ta'lim markazi	Tuman (shahar), viloyat (Toshkent shahar, Qoraqalpog'iston Respublikasi) miqyosida metodik ishi ommalashtirilgan talabgorlarga sertifikat beradi. Respublika miqyosida ommalashtirishga tavsiya etilgan Metodik ishni o'rganib chiqadi va sertifikat beradi.	Har yili 25-mayga qadar Har yili 5-iyunga qadar

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligida mavjud axborot tizimlarini ekspertizadan o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Elektron hukumat” tizimi doirasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish sifatini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida 2019-yil 21-maydagi PQ-4328-son qaroriga asosan vazirlik tizimida joriy etilishi rejalashtirilgan axborot tizimlari texnik topshiriq talablariga mosligini (2-bosqich) hamda axborot xavfsizligi talablariga muvofiqligi yuzasidan (3-bosqich) ekspertizadan o‘tkazish maqsadida **buyuraman**:

1. Quyidagilar:

Ta‘lim sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi Kengashining 2024-yil 12-fevraldagi 19-sonli majlis bayonida “Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarida tarifikatsiya va dars taqsimoti jarayonini avtomatlashtirish” axborot tizimini texnik topshiriq talablariga muvofiqligi yuzasidan hamda vazirlik tizimida Davlat xaridlari jarayonlarini boshqarish va monitoringini olib borish uchun tegishli maxsus axborot portallari bilan integratsiyalashgan axborot tizimni axborot xavfsizligi talablariga muvofiqligi yuzasidan ekspertizadan o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan qoplanishi bo‘yicha tegishli qaror qabul qilinganligi;

“Kiberxavfsizlik markazi” davlat unitar korxonasining 2024-yil 23-yanvardagi 04-21-01/235-sonli hamda 2024-yil 29-yanvardagi 03-09/276-sonli xatlari ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligida joriy etilgan axborot tizimlari “Kiberxavfsizlik markazi” davlat unitar korxonasi tomonidan texnik topshiriq talablariga hamda axborot xavfsizligi talablariga muvofiqligi ekspertizadan o‘tkazilsin.

3. Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligida joriy etilgan axborot tizimlarining texnik topshiriq talablariga hamda axborot xavfsizligi talablariga muvofiqligi yuzasidan ekspertizadan o‘tkazish bilan bog‘liq sarf-xarajatlar smetasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Davlat xaridlarini tashkil etish bo‘limi (J.Mannonov) axborot

tizimlarini ekspertizadan o‘tkazish uchun “Kiberxavfsizlik markazi” davlat unitar korxonasi bilan o‘rnatilgan tartibda xizmatlar uchun ikki tomonlama shartnomalar tuzsin.

5. Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi (F.Jamuratova) xizmatlarni xarid qilish yuzasidan tuzilgan shartnomalarni G‘aznachilik qo‘mitasidan ro‘yxatdan o‘tkazish va ushbu shartnomalar bo‘yicha to‘lovlarni kechiktirmasdan amalga oshirish vazifalari yuklatilsin.

6. Ta’lim sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish bo‘limi (I.Xoliqulov) Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi tomonidan aniq hisob-kitoblar bilan taqdim etilgan talabnomalarga muvofiq xizmatlarni xarid qilishga tegishli xarajatlarni o‘z vaqtida moliyalashtirishni amalga oshirsin.

7. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (R.Musurmonov) shartnomalar bo‘yicha to‘lovlar amalga oshirilganidan so‘ng ilovada keltirilgan axborot tizimlari bo‘yicha ekspertiza xulosalarini olish ishlarini tashkillashtirsin.

8. Devonxona (X.Raximbayeva) ushbu buyruqni markaziy apparatining tegishli tarkibiy bo‘linmalariga yetkazilishini ta’minlasin.

9. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari T.Komilov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2024-yil 9-fevral,
36-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Respublika qiz bolalar o‘quv-tarbiya muassasasi xodimlarini attestatsiyadan o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosatining 2023-yil 22-noyabrda o‘tkazilgan Ijtimoiy nafaqa va moddiy yordamlarning manzilliligi va samaradorligini oshirish, mahallalarda ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida 110/-32-son XDFU majlisi bayonida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. Respublika qiz bolalar o‘quv tarbiya muassasasi (keyingi o‘rinlarda - o‘quv-tarbiya muassasasi) da ishlovchi xodimlarni egallab turgan lavozimiga loyiqligi yuzasidan navbatdan tashqari attestatsiya (keyingi o‘rinlarda - attestatsiya)dan o‘tkazilsin.

2. O‘quv-tarbiya muassasasi xodimlari uchun navbatdan tashqari ikki bosqichli attestatsiya o‘tkazilsin. Bunda, birinchi bosqich test sinovlari 2024-yil 18-mart kuni hamda ikkinchi bosqich suhbat jarayonlari 2024-yil 19-mart kuni o‘tkazilishi belgilansin.

3. Quyidagilar:

Respublika qiz bolalar o‘quv tarbiya muassasasi xodimlarini attestatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Respublika qiz bolalar o‘quv tarbiya muassasasida ishlovchi xodimlarni egallab turgan lavozimiga loyiqligi yuzasidan navbatdan tashqari attestatsiya natijalari yuzasidan berilgan ariza va shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha apellyatsiya komissiyasi tarkibi 2-ilovaga muvofiq;

attestatsiyadan o‘tkazish Respublika qiz bolalar o‘quv tarbiya muassasasi xodimlarini egallab turgan lavozimiga loyiqligi yuzasidan navbatdan tashqari attestatsiyadan o‘tkazish tartibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Belgilab qo‘yilsinki, attestatsiya komissiyasi tomonidan attestatsiyadan o‘tuvchining faoliyati qoniqarsiz ekanligi to‘g‘risida berilgan xulosa xodimning malakasi yetarli emasligini tasdiqlovchi dalillardan biri hisoblanadi hamda ish beruvchi tomonidan xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasini O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 161-moddasi ikkinchi qismining 3-bandiga asosan

(ogohlantirish muddatiga rioya qilgan holda) bekor qilish uchun asos bo‘ladi.

5. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi (D.Davidova) attestatsiya o‘tkaziladigan pedagoglar uchun test sinovlari materiallarini o‘z lavozimiga qo‘yiladigan malaka talablariga muvofiqligi hamda maxfiyligini ta’minlagan holda tayyorlasin.

6. Bolalarni ijtimoiy himoya qilish va inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘limi (R.To‘rayev) ga:

joriy yilning 16-fevraliga qadar ikkinchi bosqichda qatnashuvchilarga suhbat jarayonida foydalaniladigan savollarni tuzish hamda ushbu savollar bilan tanishish imkoniyatini taqdim etish;

mazkur buyruqni barcha attestatsiyadan o‘tuvchilar e’tiboriga yetkazish;

bir hafta muddatda attestatsiyadan o‘tuvchilar ro‘yxatini shakllantirish hamda ularning tegishli hujjatlarini tayyorlash;

attestatsiyadan o‘tuvchilarning attestatsiya jarayoniga o‘z vaqtida jalb etilishini ta’minlash vazifalari yuklatilsin.

7. Attestatsiya komissiyasi raisi (F.Boqiyev)ga:

attestatsiya jarayonlarining adolatli, xolisona va shaffof o‘tkazilishini ta’minlash;

attestatsiyadan o‘tuvchilarning o‘z lavozimiga loyiq yoki noloyiqligi to‘g‘risida qaror chiqarish;

attestatsiya natijalariga ko‘ra attestatsiyadan o‘tmagan deb topilgan hamda attestatsiyaga uzrli sabablarsiz qatnashmagan attestatsiyadan o‘tuvchilarga nisbatan mehnat qonunchiligiga muvofiq intizomiy choralar ko‘rilishi yuzasidan takliflar berish;

attestatsiya natijalari yuzasidan yakuniy hisobotni Vazirlar Mahkamasiga taqdim etish choralarini ko‘rilish vazifalari yuklatilsin.

8. Pedagog kadrlarga malaka toifalarini berish va sertifikatlash bo‘limi (U.Dusnazarov) o‘quv-tarbiya muassasasi xodimlari uchun tashkil etiladigan test jarayonlarini aniq vaqt rejimida (online) sifatli, adolatli va shaffof o‘tkazilishini ta’minlasin.

9. Toshkent viloyati maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi (I.Akbarov)ga:

bir oy muddatda attestatsiya o‘tuvchilarga qulaylik yaratish maqsadida, Toshkent viloyati, Chinoz tumanidan attestatsiya o‘tkazish uchun joy belgilasin;

attestatsiya o‘tkazish uchun mo‘ljallangan binolarni texnik vositalar (foto va videotasvir apparatlari) bilan ta’minlasin;

attestatsiyadan o‘tuvchilarning attestatsiya jarayoniga belgilangan vaqtda yetib kelishini ta’minlasin;

bir kun muddatda mazkur qarorni barcha o‘quv-tarbiya muassasasi xodimlariga yetkazish choralarini ko‘rsin.

10. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (R.Musurmonov) test o‘tkaziladigan auditoriya (xona)laridagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va dasturiy ta’minotlar sozligi hamda kompyuterlarning internet tarmog‘iga ulanishi va uzluksiz ishlashini ta’minlasin.

11. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari F. Boqiyev zimmasiga yuklansin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2024-yil 12-fevral,
37-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2024-yil 12-fevraldagi
37-sonli buyrug‘iga
1-ILOVA

Respublika qiz bolalar o‘quv tarbiya muassasasi xodimlarini attestatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha komissiya TARKIBI

T/r	F.I.SH.	Lavozimi
1.	Boqiyev Farxod Esanovich	Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri o‘rinbosari, attestatsiya komissiyasi raisi
2.	Gaynutdinova Lilya Rifkatovna	O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi direktori, komissiyasi raisi o‘rinbosari
3.	Sharipov Ilyosbek Ilhomovich	Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i, a’zo
4.	Kuchkarova Nargiza Sharafjanovna	Pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va ularni tayyorlaydigan muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i, a’zo
5.	Raximboyev Sardor Qahramonovich	Ta’lim tashkilotlarini davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish bo‘limi boshlig‘i, a’zo
6.	To‘rayev Ro‘zibek Ochilovich	Bolalarni ijtimoiy himoya qilish va inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i, kotibi

Izoh: Bolalarni ijtimoiy himoya qilish va inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘limining Respublika qiz bolalar o‘quv tarbiya muassasasi xodimlarini attestatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha komissiya tarkibi a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2024-yil 12-fevraldagi
37-sonli buyrug‘iga
2-ILOVA

Respublika qiz bolalar o‘quv tarbiya muassasasida ishlovchi xodimlarni egallab turgan lavozimiga loyiqligi yuzasidan navbatdan tashqari attestatsiya natijalari yuzasidan berilgan ariza va shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha apellyatsiya komissiyasi
TARKIBI

T/r	F.I.SH.	Lavozimi
1	Dusnazarov Umidjon Muminjonovich	Pedagog kadrlarga malaka toifalarini berish va sertifikatlash bo‘limi boshlig‘i, apellyatsiya komissiyasi raisi
2	Xamrayev Shavkat Muminovich	Korrupsiyaga qarshi kurash va huquqiy nazorat boshqarmasi boshlig‘i, a’zo
3	Saibova Iroda baxtiyorovna	Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi direktori o’rinbosari, a’zo
4	Ubaydullayev Hasan Ubaydullayev	Pedagog kadrlarga malaka toifalarini berish va sertifikatlash bo‘limi bosh mutaxassisi, a’zo
5	Abdug‘aniyev Abdurauf Abdumannon o‘g‘li	Bolalarni ijtimoiy himoya qilish va inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘limi yetakchi mutaxassisi, a’zo

Izoh: Apellyatsiya komissiyasi a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirining
2024-yil 12-fevraldagi
37-sonli buyrug‘iga
3-ILOVA

Respublika qiz bolalar o‘quv-tarbiya muassasasi xodimlarini egallab turgan lavozimiga loyiqligi yuzasidan navbatdan tashqari attestatsiyadan o‘tkazish TARTIBI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Tartib Respublika qiz bolalar o‘quv-tarbiya muassasasi (keyingi o‘rinlarda - o‘quv-tarbiya muassasasi) xodimlarini bilim va ko‘nikmalarini tekshirish uchun navbatdan tashqari attestatsiyadan (keyingi o‘rinlarda - Attestatsiya)dan o‘tkazilishini belgilaydi.

2. Tartib o‘quv-tarbiya muassasasi xodimlariga nisbatan tatbiq etiladi va shu xodimlarning egallab turgan lavozimiga loyiqligi yuzasidan attestatsiyadan o‘tkazilishini belgilaydi.

3. Attestatsiya bir martalik xarakterga ega bo‘lib, joriy yil 18-19-mart kunlari o‘tkaziladi.

4. Attestatsiya majburiylik, oshkoralik, kengashib ish ko‘rish, xolislik va teng huquqlilik tamoyillari asosida tashkil etiladi.

5. O‘quv-tarbiya muassasasi xodimlariga test jarayonida bir marta topshirish imkoniyati beriladi.

6. Bolalarni ijtimoiy himoya qilish va inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘limi o‘tkazilayotgan attestatsiyaning asosiy tashkilotchisi hisoblanadi.

7. Attestatsiyadan o‘tkazish jarayonlari audio va videoyozuvlarda qayd etib boriladi.

2-bob. Attestatsiyaning maqsadi va vazifasi

8. Attestatsiyani o‘tkazishdan maqsad attestatsiyadan o‘tuvchilar faoliyatining ta’lim sohasiga qo‘yilayotgan zamonaviy talablarga hamda o‘z lavozimiga qo‘yiladigan malaka talablariga muvofiqligini aniqlashdan iborat.

3-bob. Attestatsiya komissiyasini tuzish va uning vazifalari

9. Attestatsiya Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi buyrug‘i

bilan tasdiqlangan attestatsiya komissiyasi tomonidan o‘tkaziladi.

Zaruratga ko‘ra, Vazirlik tomonidan attestatsiya komissiyasi ishining samaradorligini oshirish va unga ko‘maklashish uchun uning faoliyatiga boshqa mutaxassislar ham jalb etilishi mumkin.

10. Attestatsiya komissiyasining faoliyat ko‘rsatish muddati attestatsiya jarayonlari yakunlangunga qadar etib belgilanadi.

11. Quyidagilar attestatsiya komissiyasining vazifalari hisoblanadi:

xodimlarni egallab turgan lavozimiga layoqatini, shuningdek, pedagog xodimlarning malaka tavsiflariga mos yoki mos emasligini aniqlash;

Attestatsiya natijalariga ko‘ra umumlashtirilgan hisobotlar tuzishdan iborat.

12. Attestatsiya komissiyasi yig‘ilishi komissiya a’zolarining uchdan ikki qismi ishtirok etsa, vakolatli hisoblanadi.

13. Attestatsiya komissiyasi raisi va attestatsiyaning ushbu Tartib talablariga muvofiq o‘tkazilishi uchun mas’ul hisoblanadi.

4-bob. Attestatsiyani tashkil etish va o‘tkazish

14. O‘quv-tarbiya muassasasining barcha xodimlari (o‘rindoshlik asosida ishlovchi xodimlar ham) Attestatsiyadan o‘tish uchun jalb etiladi.

15. Quyidagi xodimlar attestatsiyadan o‘tkazilmaydi:

homiladorlik va tug‘ish hamda bola parvarishlash ta’tilidagi ayollar;

mehnatga layoqatsizlik davrida bo‘lganlar;

ishga qabul qilinganiga yoki bola parvarishlash ta’tilidan qaytganiga bir yil to‘lmaganlar;

“O‘zbekiston Respublikasi xalq o‘qituvchisi” faxriy unvoniga ega pedagog xodimlar (attestatsiyaga jalb etilmagan xolda o‘quv tarbiya muassasasiga faoliyatini yuritish tavsiya etiladi);

o‘zi dars beradigan fani bo‘yicha xalqaro tan olingan yoki milliy sertifikatga ega bo‘lgan (CEFR shkalasida kamida C1 va undan yuqori) pedagog xodimlar (attestatsiyaga jalb etilmagan xolda o‘quv tarbiya muassasasiga faoliyatini yuritish tavsiya etiladi);

attestatsiyadan o‘tuvchining lavozim va majburiyatlari zimmasiga vaqtincha yuklatilgan xodimlar.

16. Test sinovlari o‘tkazilayotgan xonaga begona kishilarning kirishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

17. O‘quv-tarbiya muassasasi rahbari attestatsiyadan o’tish kuni

va joyini 10 kun oldin e'lon qiladi va attestatsiyadan o'tuvchilarni attestatsiyadan o'tkazish tartibi bilan tanishtiradi hamda ularga attestatsiyadan o'tkazish yuzasidan savollarning taxminiy ro'yxatini taqdim etadi.

18. Test sinovlari Internet jahon axborot tarmog'iga ulangan kompyuter texnikasi bilan jihozlangan joylarda onlayn tarzda o'tkaziladi.

19. Attestatsiya ikki bosqichda tashkil etiladi:

birinchi bosqichda attestatsiyadan o'tuvchilarning bilim va malaka tavsiflari belgilangan lavozim majburiyatlariga mosligi yuzasidan test sinovi orqali baholanadi;

test savollari ko'p variantlilik asosida, har biri **40 ta** savoldan hamda har bir savol **4 ta** javobdan iborat bo'ladi.

Pedagoglar uchun test savollari o'z lavozimiga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiqligini bo'yicha tuziladi. Test savollari va ularning javoblari Ta'lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamentida saqlanadi va ularning oshkora qilinmasligi uchun mas'ul hisoblanadi.

Test savollarining namunaviy ko'rinishi kamida bir oy oldin taqdim etiladi.

20. Ishchi guruh tomonidan Attestatsiyadan o'tuvchilarga test sinovlari o'tkazishning qisqacha mazmuni va tartibini tushuntiradi. Shundan so'ng attestatsiyadan o'tuvchilar onlayn-platforma orqali test sinovi topshiradi.

21. Test savollariga javob berish uchun **120 daqiqa** vaqt beriladi. Har bir to'g'ri bajarilgan test savoli **1,25 ball** bilan baholanadi. Test sinovlari uchun maksimal **50 ball** beriladi.

Har bir test savoliga faqat bitta javob belgilanishi lozim.

Test sinovi natijalari mazkur Tartibning 1-ilovasiga muvofiq, javoblar varaqasiga qayd etiladi.

22. Test sinovlari natijalariga ko'ra **28** va undan yuqori ball to'plagan qatnashuvchilarga attestatsiyaning ikkinchi bosqichida ishtirok etishga ruxsat beriladi. Test sinovida to'plangan ballar ikkinchi bosqich natijalariga ta'sir qilmaydi.

23. Test jarayonida quyidagilar taqiqlanadi:

qonun hujjatlaridan, ma'lumot beruvchi va maxsus adabiyotlardan, har qanday turdagi texnika vositalaridan yoki boshqa materiallardan (ma'lumotlardan) foydalanish;

boshqa shaxslar bilan suhbatlashish;

ekranda test javobi aks etgunga qadar test savollari o'tkazilayotgan xonadan ruxsatsiz tashqariga chiqish.

Mazkur talablarga rioya qilmagan qatnashuvchi test jarayonini o‘tkazish tartibini buzgan deb topiladi va uni attestatsiyada qatnashishdan chetlashtirish uchun asos bo‘ladi. Ushbu holatda xona nazoratchisi tomonidan mazkur tartibning 2-ilovasiga muvofiq shaklda dalolatnoma rasmiylashtiriladi.

24. Test sinovlari natijalarini talabgorlar test yakuni bo‘yicha o‘sha vaqtning o‘zida kompyuter ekranida ko‘radi.

25. Test sinovlari natijasi sinov uchun belgilangan vaqt tugagunga qadar yoki tugashi bilan sinov kuzatuvchisi tomonidan maxsus qaydnomada yozma ravishda belgilanadi va talabgor o‘z test natijasi yoniga imzo qo‘yib, natija haqqoniyligini tasdiqlaydi.

26. Test sinoviga kelmagan nomzodlar ishtirok etmagan deb hisoblanadi.

27. Ikkinchi bosqich suhbat jarayoni attestatsiya komissiyasi tomonidan attestatsiyadan o‘tuvchilarning sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlarni qay darajada bilishi, jahon va Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarga oid yangiliklardan xabardorligi, kasbiy, lavozim majburiyatlari va faoliyatini tashkil etishi bo‘yicha attestatsiya komissiyasi tomonidan suhbat o‘tkazilib, suhbat jarayonida bir oy oldin taqdim etilgan savolnoma asosida attestatsiyadan o‘tuvchilarga beshtadan savol beriladi hamda mazkur Nizomga 3-ilovaga muvofiq baholash mezonlari asosida umumiy 50 ballik tizimda baholanadi.

Savollar bileti attestatsiyadan o‘tuvchi tomonidan bir nechta imtihon biletlari orasidan tanlab olish orqali o‘tkaziladi.

Savollar aniq, lo‘nda va tushunarli tarzda berilishi, “ha” yoki “yo‘q” shaklida javob berilishini taqozo etmasligi lozim.

Suhbat jarayonida attestatsiyadan o‘tuvchining egallab turgan lavozimining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda boshqa soha mutaxassislari ham attestatsiyadan o‘tuvchiga savollar berish va javoblar bo‘yicha o‘z xulosasini bayon etish uchun ovoz berish huquqini taklif etishi mumkin.

28. Attestatsiya komissiyasi shaffofligini ta’minlash maqsadida attestatsiyadan o‘tuvchini ogohlantirgan xolda suhbat jarayonini videotasvirga olishi mumkin.

Attestatsiya o‘tkazilayotgan joyda Attestatsiya komissiyasi a’zolari va attestatsiyadan o‘tuvchidan tashqari begona shaxslarning hozir bo‘lishiga ruxsat berilmaydi.

29. Ikkinchi bosqichda suhbat jarayoniga 20 daqiqa vaqt ajratiladi. Suhbat davomida maksimum 5 ta savol uchun 50 ball taqdim eti-

ladi va 28 ball va undan yuqori natija ko‘rsatgan pedagoglar ikkinchi bosqichdan o‘tgan hisoblanadi.

30. Attestatsiyadan o‘tuvchining umumiy balli ikki bosqich natijalariga ko‘ra to‘plagan ballarini qo‘shish yo‘li bilan chiqariladi va attestatsiya komissiyasi tomonidan quyidagi qarorlar qabul qilinadi:

a’lo - 80 ball va undan yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lsa – attestatsiyadan o‘tgan;

yaxshi - 70 ball va undan yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lsa – attestatsiyadan o‘tgan;

o‘rta - 65 ball va undan yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lsa, – attestatsiyadan o‘tgan;

qoniqarli - 56 ball va undan yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lsa, – attestatsiyadan o‘tgan;

qoniqarsiz - 56 baldan past ko‘rsatkichga ega bo‘lsa, – attestatsiyadan **o‘tmagan** hisoblanadi.

31. Attestatsiyadan o‘tuvchi to‘liq attestatsiya jarayoniga yoki uning bosqichiga uzrli sababga (asoslantiruvchi hujjatlar, mehnatga layoqatsizlik varaqasi, attestatsiyadan o‘tuvchining tushuntirish xati, yuqoriga turuvchi rahbarning ma’lumotnomasi) ko‘ra kelmagan bo‘lsa, uning attestatsiyasi boshqa muddatga ko‘chiriladi. Bunda, kelmaslik sabablari bartaraf etilgan kundan boshlab uch kun ichida attestatsiyadan o‘tuvchi darhol belgilangan tartibda attestatsiyadan o‘tkaziladi.

32. Attestatsiyadan o‘tuvchi attestatsiya jarayoniga uzrsiz sababga ko‘ra ishtirok etmagan bo‘lsa, unga nisbatan “Attestatsiyadan o‘tmadi, egallab turgan lavozimiga muvofiq emas” degan qarorlar chiqariladi.

33. Attestatsiya komissiyasi qarori attestatsiya komissiyasi raisi, raisi o‘rinbosari va kotib tomonidan imzolanadi.

34. Attestatsiya komissiyasi tomonidan ovozga qo‘yilgan holda quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi:

“Attestatsiyadan o‘tdi, lavozimiga loyiq”

“Attestatsiyadan o‘tmadi, lavozimiga loyiq emas”.

35. Attestatsiya komissiyasi qarorlari uning majlisida komissiya a’zolarining uchdan ikki qismi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi.

36. Attestatsiya komissiyasining “Attestatsiyadan o‘tmadi, egallab turgan lavozimiga muvofiq emas” degan qarori qabul qilingan taqdirda attestatsiyadan o‘tuvchilar bilan tuzilgan mehnat shartnomasi O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 161-moddasi ikkinchi qismining 3-bandiga asosan (ogohlantirish muddatiga rioya

qilgan holda) bekor qilinadi.

5-bob. Attestatsiya natijalari yuzasidan shikoyat qilish

37. Attestatsiya komissiyasi qaroridan norozi bo‘lgan nomzodlar tanlov natijalari e’lon qilingan kundan boshlab uch ish kuni mobaynida apellyatsiya komissiyasiga yozma ravishda ariza (shikoyat) bilan murojaat qilishlari mumkin.

38. Attestatsiyadan o‘tuvchilar shikoyatlari ro‘yxatga olingan kundan boshlab besh ish kuni ichida ko‘rib chiqiladi.

Attestatsiyadan o‘tuvchilar apellyatsiya komissiyasi tomonidan shikoyatni ko‘rib chiqish jarayoniga ishtirok etishga haqli.

39. Apellyatsiya komissiyasi Attestatsiya komissiyasining qarorini o‘zgartirishsiz qoldirish yoki uni bekor qilish haqida qaror chiqaradi.

40. Apellyatsiya komissiyasi muammoli holatlarga aniqlik kiritish maqsadida komissiya faoliyatiga jamoatchilik asosida malakali mutaxassislarni ham jalb etishi mumkin.

7-bob. Yakuniy qoidalar

41. Attestatsiyadan o‘tuvchilarni attestatsiyadan o‘tkazish bilan bog‘liq mehnat nizolari amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

42. Apellyatsiya komissiyasi qarori ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sudga shikoyat qilinishi mumkin.

43. Ushbu Tartib talablarini buzilishiga aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

Respublika qiz bolalar o‘quv-tarbiya muassasasi
xodimlarini egallab turgan lavozimiga loyiqligi
yuzasidan navbatdan tashqari attestatsiyadan
o‘tkazish tartibga
1-ILOVA

“TASDIQLAYMAN”
Komissiya raisi

(imzo) F.I.Sh.
lavozimida ishlovchi *(lavozim nomi)*
ning (attestatsiyadan o ‘tuvchining F.I.Sh.)

JAVOBLAR VARAQASI

Attestatsiya o‘tkazilgan sana:
Attestatsiya boshlangan vaqt: Attestatsiya tugagan vaqt:

I-bosqich test sinovi

1-bosqich bo‘yicha to‘plangan ball: .
1-bosqichda ishtirok etmaslik sababi:

2-bosqich suhbat (savol-javob)

Attestatsiya komissiya a’zolarining F.I.SH.	**2-bosqich natijalari**				
	1-savol (0-10 ball)	2-savol (0-10 ball)	3-savol (0-10 ball)	4-savol (0-10 ball)	5-savol (0-10 ball)
F.I.SH. - komissiya raisi					
F.I.SH. - komissiya raisi o‘rinbosari					
F.I.SH. - komissiya a’zosi					
F.I.SH. - komissiya a’zosi					
F.I.SH. - komissiya a’zosi					
F.I.SH.- komissiya a’zosi					

Attestatsiya natijasida nomzod_____ ball to‘pladi, lavozimga tavsiya etiladi/etilmaydi.

Attestatsiyadan o‘tuvchi_____
(imzo) (F.I.Sh.)

Ishchi guruh kotibi _____
(imzo) (F.I.Sh)

Respublika qiz bolalar o‘quv-tarbiya muassasasi xodimlarini egallab turgan lavozimiga loyiqligi yuzasidan navbatdan tashqari attestatsiyadan o‘tkazish tartibiga
2-ILOVA

Attestatsiyadan chetlatish haqida
DALOLATNOMA

Toshkent viloyati 2024-yil “___” _____

Biz, quyidagi imzo chekuvchilar shuni tasdiqlaymizki, navbatdan tashqari attestatsiyadan o‘tuvchi_____
quyidagi sabablarga ko‘ra *(nomzodning F.I.Sh)*
attestatsiyadan soat_____:_____ da chetlatildi:

qonun hujjatlaridan, ma’lumot beruvchi va maxsus adabiyotlardan, har qanday turdagi texnika vositalaridan (kalkulyatordan tashqari) yoki boshqa materiallardan (ma’lumotlardan) foydalandi;

boshqa nomzodlar bilan suhbatlashdi;

ekranda test natijasi aks etgunga qadar test sinovi o‘tkazilayotgan xonadan ruxsatsiz tashqariga chiqdi.

Respublika qiz bolalar o‘quv-tarbiya muassasasi xodimlarini egallab turgan lavozimiga loyiqligi yuzasidan navbatdan tashqari attestatsiyadan o‘tkazish tartibining **23-bandi** talablarini buzdi.

Komissiya a’zosi _____
(imzo) (F.I.Sh.)
Komissiya a’zosi _____
(imzo) (F.I.Sh.)
Komissiya a’zosi _____
(imzo) (F.I.Sh.)

Respublika qiz bolalar o‘quv-tarbiya muassasasi
xodimlarini egallab turgan lavozimiga loyiqligi
yuzasidan navbatdan tashqari attestatsiyadan
o‘tkazish tartibiga
3-ILOVA

Respublika qiz bolalar o‘quv-tarbiya muassasasi xodimlari bilan suhbat jarayonlari
BAHOLASH MEZONLARI

Suhbat jarayonida berilgan uchta savolning har biri 10 ballgacha quyidagicha baholanadi:

savolning javobini tahlil qilib, berilgan savolga aniqlik kiritish uchun qo‘shimcha savollar va izohlar talab qilinmaydigan tarzda, fikrlarini turli misollar keltirib, manbalari bilan asoslantirgan holda to‘liq javob bera olsa - 10 ball;

savolning javobini tahlil qilib, berilgan savolga aniqlik kiritish uchun qo‘shimcha savollar va izohlar talab qilinmaydigan tarzda to‘liq javob bersa - 8ball;

savolning javobini tahlil qilib, berilgan savolga aniqlik kiritish uchun qo‘shimcha savollar va izohlar talab qilinadigan tarzda javob bersa - 6 ball;

savolni tahlil qila olmasa, berilgan savolga mazmunan yaqin bo‘lgan qo‘shimcha savollar va izohlar talab qilinadigan tarzda qisman javob bersa - 4 ball;

savolga javob bera olmasa, berilgan savolga mazmunan yaqin bo‘lgan qo‘shimcha savolga javob bersa - 2 ball;

savolga javob bera olmasa, berilgan savolga mazmunan yaqin bo‘lgan qo‘shimcha savolga ham javob bera olmasa - 0 ball.

Izoh: *savollarga berilgan javoblarni baholash jarayonida 1,3,5,7,9 ball qo‘yllmaayd.*

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Bosh muharrir o‘rinbosari;
Mas’ul kotib:
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

Bosh dizayner – badiiy muharrir:
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

TAHRIR HAY’ATI:
Xilola UMAROVA, Risboy JO‘RAYEV, Xolboy IBRAGIMOV, G‘ayrat SHOUMAROV, Ulug‘bek INOYATOV, Oynisa MUSURMONOVA, Shukurullo MARDONOV, Saidaxbor BULATOV, Ulfat MAHKAMOV, Barno ABDULLAYEVA, Dilyara SHARIPOVA, Lola MO‘MINOVA, Maqsudjon YULDASHEV, Mirodiljon BARATOV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA’MUROV, Yashin ISMANDIYAROV, Sharibboy ERGASHEV, Alisher UMAROV, Shaxnoza XALILOVA , Muhayyo UMARALIYEVA

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Sobitxon TURG‘UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Kamola RISKULOVA, Islom ZOKIROV

Tahririyat manzili:
Toshkent shahar Shayxontohur tumani Navoiy ko‘chasi 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: (0 371) 231-16-52

Jurnal O‘zMAA tomonidan 2015-yil 3-iyunda ro‘yxatga olinib, 0852-raqamli guvohnoma berilgan.

Buyruq va ularning ilovalari to‘liq, o‘zgartirishsiz chop etilmoqda. Jurnal tahririyatning kompyuter bo‘limida terilib, sahifalandi.

“Sano-standart” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Olmazor tumani Shiroq ko‘chasi, 100-uy.

Bosishga ruxsat etildi: 00. 00. 2020-y. Qog‘oz bichimi 84x108 $^{1}/_{32}$.
Ofset bosma usuli. Shartli b.t. 7,0. Adadi ------ nusxa.
-buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul – Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

© “Xalq ta’limi axborotnomasi”, 2024.